

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

ZOXIDOVA SANOAT RAXMONOVNA

**KASB-HUNAR KOLLEJLARI TALABALARIDA MILLIY MAFKURANI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI
(Ijtimoiy gumanitar fanlar asosida)**

**5A141604 – Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi
mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini
olish uchun**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
Ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar:

Dots. Abdumannotov A. _____

kafedraasi mudiri _____

« _____ » _____ 201__y

M.O‘.

Samarqand – 2011

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. KASB-HUNAR KOLLEJI TALABALARINI MAFKURAVIY TARBIYALASHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	
1.1. Kasb - hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	11
1.2. Ijtimoiy – gumanitar fanlar asosida kasb - hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning holati va imkoniyatlari.....	21
II BOB. IJTIMOIIY – GUMANITAR FANLAR ASOSIDA KASB - HUNAR KOLLEJI TALABALARINI MAFKURAVIY TARBIYALASHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI	
2.1. Dars jarayonida kasb – hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning mazmuni.....	37
2.2. Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kasb – hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning omillari.....	57
III BOB. KASB - HUNAR KOLLEJI TALABALARINI MAFKURAVIY TARBIYALASHGA OID O`TKAZILGAN TAJRIBA – SINOV ISHLARINING NATIJALARI VA TAHLILI	
3.1. Talabalarini mafkuraviy tarbiyalashga oid o`tkazilgan tajriba – sinov ishlarining natijalari.....	63
3.2. Talabalarda mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishga oid o`tkazilgan tajriba – sinov ishlarining tahlili.....	80
XULOSA.....	85
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	88

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek, bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Hozirgi davrni kimdir yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yangi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda. Albatta bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat bor. Chunki, ularning har biri o'zida serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo, ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kinga sir emas.

Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni tan olish kerak-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bo'lib borayotgani, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish qiyin emas. Shu ma'noda, globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lganidek, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda-ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin.

Globalashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarni manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta kuzatishi muqarrar. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki,

bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko`proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo`lishga, undovchi tomchi shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo`lsa, buni sezish, ko`rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning tavsifi va oqibatlarini tezda ilg`ab yetish qiyin.

Mana shunday paytda odam o`z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o`tgan hayotiy–milliy qadriyatlarga, sog`lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo`lmasa, turli ma`naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko`rinishdagi ta`sirga bardosh berish amri mahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko`plab misollar orqali ko`rish mumkin. O`tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro`y bergan, biz bevosita o`z boshimizdan kechirgan voqealar mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to`g`ri ekanini qayta – qayta isbotlamoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o`quv dargohlarida, balki radio, televideniye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang – barang axborot va ma`lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini, faqat o`rab –chirmab, uni o`qima, buni ko`rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o`rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning maqsad – muddaolarimizga ham to`g`ri kelmaydi. Sababi biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o`z oldimizga qat`iy maqsad qilib qo`yganmiz va buy o`ldan hech qachon qaytmaymiz. Davlatimiz kelajagini o`z qobig`imizda o`rmashibolgan holda emas, balki umumbahsariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o`zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang–barangligini o`z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko`ramiz. Biz butun ma`rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch – totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o`zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz. Biz uchun boshqa yo`l yo`q. Aniqrog`i, yoshlarimizning ma`naviy olamida bo`shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog`lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat – ehtirom tuyg`usini bolalik

paytidan boshlab, shakllantirishimiz zarur. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyulgan kichkina xabar ham axborot olamidagi globalashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazish mumkin.

Har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch–qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo, xalqimiz, avvalambor, yoshlarimiz ma'naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib ish olib borishimiz kerak, degan savol barchamizni o'ylantirishi tabiiy. Tobora kuchayib borayotgan bunday xabarlariga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin. Mamlakatimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va uning xalq normalaridan voz kechilgandan so'ng, jamoada paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak. Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egositrizm e'tiqodini tarqatish kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning nega ming yillik an'ana va qadriyatlariga, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Bu haqda ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda sharqona axloq kodeksini ishlab chiqilganligini eslash o'rinli.

Insonlarning ona–Vatan, el–yurtga boʻlgan mehr–muhabbati, eʼtiqod va iymonlarini ifodalovchi fikrlar – ilk yozma manbalar – “Avesto”, Urxun-Yenisey yodgorliklari, muqaddas “Qurʼoni Karim”da oʻz ifodasini topgan. Buyuk mutafakkirlar imom Buxoriy, at–Termiziy, al–Fargʻoniy, Forobiy, Rudakiy, ibn Sino, Yusuf xos Hojib, az–Zamaxshariy, Mahmud Qoshgʻariy Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Ulugʻbek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy va boshqalar milliy – gʻoyaviy tamoyillarning jamiyat, davlat taraqqiyotidagi oʻrni va insonni shakllantirishdagi nazariy va amaliy asoslarini yoritib berganlar.

Muammoning oʻrganilish darajasi. Mafkuraning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni, barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati, inson kamolotining maʼnaviy asoslari faylasuf olim Yu.Yusupov, J.Tulenov, Q.Nazarov, B.Ziyomammedov, T.Mahmudov, M.Imomnazarov tadqiqot ishlarida oʻz ifodasini topgan.

Milliy mafkurani yoshlar ongida shakllantirish masalalari bilan pedagog olimlardan M.Quronov, U.Mahkamov, J.Yoʻldoshev, J.Hasanboyev, S.Ochilov, S.Nishonova, Q.Quronboyev kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Jumladan, professor M. Quronov shaxs maʼnaviyati va milliy tarbiya muammolari, O.Musurmonova talabalarning maʼnaviy madaniyatini shakllantirish, S.Nishonova pedagogik fikrlar taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi, S.Ochilov Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari misolida mustaqillik maʼnaviyati va tarbiyaviy jarayonlar, U.Mahkamov talabalar axloqiy madaniyatini shakllantirish yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan. Yosh avlod ongida milliy gʻoya va mafkurani shakllantirishning shart – sharoitlari, oʻziga xos xususiyatlarini metodini, tashkiliy, amaliy, asoslarini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, R.Ahliddinovlarning xizmati katta.

Yoshlik pedagogik va psixologik jihatdan – oʻsmirlik va yetuk davrlarga toʻgʻri keladi. Bu bosqich yoshlar ongiga milliy mafkurani singdirishda muhim davr boʻlib, bu davrda yoshlarda jamiyat hayotida oʻrinlarini egallash kabi tomonlar koʻzga tashlanadi. Shu bilan birga bu davrda gʻoyaviy eʼtiqod, mustaqillikka intilish, romantik his – tuygʻularga beriluvchanlik kabi xususiyatlari bilan boshqa yosh

davrlaridan farq qiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarda mas'uliyat, vijdon, imon-e'tiqod, o'z-o'zini hurmat qilish kabi tuyg'ular qaror topadi. Shu yo'nalishdagi ishlarni o'rgatish natijasida amin bo'ldikki, yoshlarda shu jumladan kasb-hunar kolleji talabalarida milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlari katta ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, talabalarda milliy g'urur, milliy g'oya, milliy tafakkurni shakllantirmasdan turib, ularda milliy mafkurani shakllantirish mushkul. Shu bois, kasb – hunar kolleji talabalarida milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rnini katta ekanligi ko'pchilikka ma'lum. Aniqrog'i, "O'zbekiston tarixi", "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi", "Huquqshunoslik", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" kabi fanlarning har bir fasli, mavzusi ta'bir joiz bo'lsa talabalarida milliy mafkurani shakllantirishga xizmar qiladi. Bu haqda qator ilmiy, uslubiy maqolalar chop etilgan. Ammo, hayot har kuni oldimizga yangidan – yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bizning maqsadimiz ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida kasb-hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashni takomillashtirish, muammoning pedagogik jihatlarini e'tiborga qaratishni niyat qilganmiz.

Shu bois, magistrlik dissertatsiyamiz mavzusini "Kasb-hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rnini" tarzda tanladik.

Tadqiqotning maqsadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida kasb-hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning pedagogik sharoitlarini takomillashtirish va unga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ishining vazifalari. Qo'yilgan maqsadning tadqiq qilinishi uchun quyidagi masalalarni ko'rib chiqish zarur bo'ladi:

- Kasb-hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning hozirgi holatini o'rganish;
- Kasb-hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalash jarayonini kuzatish;

- Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashda pedagogik sharoitlarning imkoniyatlarini o`rganish;
- Ijtimoiy–gumanitar fanlarni o`rganish jarayonida kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning mazmuni, shakl va metodlarining belgilari, tajriba–sinov ishlarining natijalarini tahlil qilish;
- Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalash jarayonini takomillashtirish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot ob`yekti: Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Kasb–hunar kolleji talabalarini ijtimoiy– gumanitar fanlar asosida mafkuraviy tarbiyalashning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy, falsafiy, pedagogik–psixologik, metodik adabiyotlar tahlili, kuzatish, suhbat, so`rovnomalar o`tkazish, o`quv materiallarining qiyosiy tahlili, pedagogik sinov va uni o`rganish, olingan natijalarni umumlashtirish va matematik – statistik tahlil qilish usullari orqali umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy mafkurani yuksaltirishga oid fikrlari, barkamol inson shaxsini, uning xislatlarini tarbiyalash to`g`risidagi qarorlar, ilg`or pedagogik tajribalar va mavzuga oid tegishli me`yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agarda:

- Kasb–hunar kolleji talabalarini ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida mafkuraviy tarbiyalashdagi holati va imkoniyatlari o`rganilsa;
- Darsdan jarayonida kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning mazmuni aniqlansa;
- Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kasb–hunar kolleji talabalarida mafkuraviy tarbiyalashning omillari o`rganilsa va pedagogik tizilma yaratilsa;

- Bu jarayonni amalga oshirishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilsa kasb–hunar kolleji talabarlari iymon–e`tiqodli, Vatanimizga, xalqimizga sadoqatli, yetuk kadrlar bo`lib yetishadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida kasb–hunar kolleji talabalarida mafkuraviy tarbiyalashning holati va imkoniyatlari o`rganilganligi;
- Dars jarayonida kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning mazmuni, shakl va metodlari yoritilganligi;
- Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kasb–hunar kolleji talabalarida mafkuraviy tarbiyalashning omillari pedagogik jihatdan asoslanganligida o`z ifodasini topdi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Kasb–hunar kolleji o`quv rejasiga qaratilgan “O`zbekiston tarixi”, “O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”, “Huquqshunoslik”, “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanlarining mazmunini takomillashtirish va shu orqali talaba–yoshlar milliy dunyoqarashini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu esa ushbu tadqiqot ishidan kelib chiqqan xulosa va tavsiyalar asosida kasb–hunar kolleji o`qituvchilarining “O`zbekiston tarixi”, “O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”, “Huquqshunoslik”, “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanlari o`qituvchilari, o`rta maxsus, kasb–hunar ta`limi xodimlari, malaka oshirish fakultet(institut)lari, oily o`quv yurti talabarlari uchun mafkuraviy tarbiya jarayonini yaxshilashga yordam berishga loyiq amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashda ijtimoiy–gumanitar fanlarning imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb pedagogik muammo ekanligi;
- Talabalarni mafkuraviy tarbiyalashning imkoniyatlari va hozirgi holati;

- “O`zbekiston tarixi”, “O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”, “Huquqshunoslik”, “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” darslari jarayonida talabalarni mafkuarviy tarbiyalashning mazmuni;

- Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlardan talabalarni mafkuraviy tarbiyalashning o`ziga xos xususiyarlari.

Tadqiqot manbalari sifatida matbuotda chop etilgan ilmiy maqolalardan, Internet saytlarida mavjud bo`lgan ilmiy adabiyotlar, ularda muhokama qilingan pedagogik ta`lim – tarbiya muammolari chop etilgan yangiliklardan foydalandik.

Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. KASB–HUNAR KOLLEJI TALABALARINI MAFKURAVIY TARBIYALASHNING ILMIY–NAZARIY JIHATLARI

1.1. Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalash pedagogik muammo sifatida

O'tgan yigirma yil davomida jamiyatimiz yangicha tarixiy davr, milliy davlatchilikni barpo etishda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Mamlakatimiz kelajagini o'zi belgilaydigan bo'ldi. Islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan yoshlar ta'lim–tarbiyasi bilan bog'liq. Aniqrog'i, buyuk davlatni qurish barcha yoshlar qatori kasb–hunar kolleji talabalarining salohiyatiga ularning orzu–intilishlariga, aql–idrokgiga bog'liqligi sir emas. Barcha yoshlar qatori kasb–hunar kolleji talabalarini barkamol shaxs sifatida tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Sababi, ularning tarbiyasida paydo bo'lgan mafkuraviy bo'shliq yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishlariga sabab bo'lmoqda. Bunday salbiy holatlarning oldini olish, talabalar qalbiga milliy mafkurani singdirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad–muddaolari, manfaatlari, orzu–intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalarning tizimidir.

Milliy mafkurani ilmiy jihatdan asoslash va talaba–yoshlar ongiga singdirish, jamiyatning ijtimoiy ehtiyoji bo'lib, murakkab jarayonni o'z ichiga oladi. Bu muhim masala davlatimiz rahbari I.A.Karimovning asarlarida o'z ifodasini topgan.

Yurtboshimizning “O'zbekistonning o'z taraqqiyot va istiqlol yo'li”, “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “Ma'naviy yuksalish yo'lida”, “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin”, “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda”, “Milliy istiqlol mafkurasi–xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir”, “Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch” kabi asarlarida, ma'ruzalarida, xalq bilan bo'lgan uchrashuvlarida milliy mafkuraning nazariy va amaliy jihatlarini asoslab berdi.

Milliy mafkuraning bosh g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Asosiy g'oyalari Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik(tolerantlik)dir. Prezident Islom Karimov "Jamiyatimiz mafkurasini xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin" deb nomlangan asarida milliy mafkura to'g'risida to'xtalib, "Avvalambor o'zligimizni, muqaddas analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi, ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday inson e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan, uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda, poydevor va rahnamo bo'lishi, to'rtinchidan, yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi, beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi" zarurligi haqida o'z fikrlarini bayon qildi. Yurtboshimizning bu fikrlari barcha yoshlar kabi kasb-hunar kolleji talabalarini ham milliy mafkura ruhida tarbiyalashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, mafkuraviy hayotni yangilashda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati o'zining kuchiga va imkoniyatlariga tayanadigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan, o'z manfaatini xalq

manfaati bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlardan maqsad sog'lom avlodni zamonaviy va milliy ruhda bilim olish imkoniyatlarini yaratish, ularning qalbiga milliy mafkurani singdirishning izchil tizimini yaratishdan iborat. Kasb-hunar kolleji talabalarida ham mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun ularda ezgu g'oyalar, mustahkam e'tiqodni tarkib toptirishda ta'lim-tarbiyaning o'ni beqiyosdir. Bu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, milliy mafkurani talabalar ongiga singdirishda tabaqalashtirilgan pedagogik-psixologik dasturlar yaratish, barcha o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarga milliy mafkuramizni singdirish ta'lim muassasalarida mafkuraviy ta'lim-tarbiyani bugungi kunning talablari darajasiga ko'tarish, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarini yuqori pog'onaga ko'tarish asosiy vazifalardan biridir.


Inson tafakkurini harakatga keltiradigan asosiy omillardan biri milliy mafkura va shaxs ma'naviyatini shakllantirishning falsafiy, ilmiy-pedagogik tomonlari Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, Ibrohim Karimov, H.Ziyoyev, E.Yusupov, T.Mahmudov, N.Ortiqov, M.Quronov, O.Musurmonova, S.Nishonova, B.Ziyomammedov, A.Erkayev, H.Nazarov kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Quronov, R.Ahliddinovlar milliy mafkurani shakllantirishda tashkiliy – uslubiy yondashuvlar haqida fikr yuritgan.

Faylasuf E.Yusupov yoshlar ongiga milliy mafkurani singdirish jamiyat va millat ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qilsa, taraqqiy etgan jamiyat har bir shaxsning manfaatlariga to'la mos kelishini e'tirof etadi.

Rustam Ahliddinov o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida oliy ta'lim tizimida milliy g'oyani shakllantirish masalasiga e'tiborini qaratgan. Pedagog olim M.Quronov o'zining tadqiqot ishlarida mafkuraviy kurashning pedagogic talqiniga e'tibor bergan.

Gulnora Ibrohimova kasb ta'limi tizimida mafkura tarbiyasining mohiyati to'g'risida to'xtalib, mafkuraning asosiy maqsadlarini quyidagi chizmada aks ettirgan:

1 – chizma



Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmonova yoshlarni mafkuraviy sog'lomligi–ogohlik garovi ekanligini ilmiy asosda yoritgan.

Faylasuf olim A.Ochildiyev globallashuv jarayonlari va mafkuraviy tarbiya masalalari to'g'risida fikr yuritib, “mafkuraviy profilaktika xilma – xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy – tarbiyaviy, siyosiy,

iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini bir so'z bilan aytganda, to'g'ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi",-deb ta'kidlaydi.

Faylasuf olimi Gulmira Tulenova o'zining ilmiy maqolalarida yoshlarni mafkuraviy tajovuzlardan himoya qilish yo'llari haqida fikr yuritarkan, hozirgi kunda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etayotganligini ta'kidlaydi.

Falsafa fanlari doktori, professor I.Saifnazarov "mafкура – insonga qanot dedilar. Bu gapda jon bor, albatta. Chunki, sog'lom mafкура doim insonning ko'nglini ko'tarib, yuksak parvozlarga undaydi",-deb aytgan.

Tarix fanlari doktori, professor Mansur Oltin o'g'li "Prezidentimiz asarlari – talabalarni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini ruhida tarbiyalash masalalariga diqqatni jalb qilib, talaba –yoshlarga milliy mafkuraning mazmun – mohiyatini, asosiy tamoyillrini tushuntirish va singdirishda Prezident Islom Karimovning asarlari dasturamal vazifasini bajaradi. Chunki, bu asarlar Vatan tarixi, milliy qadriyatlar, O'zbekiston mustaqilligi, erkin huquqiy jamiyat barpo etish, iqtisodiy islohotlar, madaniyat va ma'naviyat, mamlakatning ichki va tashqi siyosati kabi dolzarb masalalarga bag'ishlangan",-deydi.

Professor Hasan Qudratullayev yoshlarga yuzlangan mafkuraviy tahdidlar va adabiyot o'qituvchilari oldidagi dolzarb vazifalarni aniq va misollar yordamida ko'rsatib bergan.

Pedagog olimi Z.Qosimova mafkuraviy munosabat va uni shakllantirish haqida to'xtalib, mafkuraviy tarbiya talabani ma'naviy–ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy, jamiyatshunoslik bilimlarini oddiygina qabul qilib olishni emas, balki ularni ongli ravishda tushunib yetishni, bu bilimlardan zamonaviy, ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqealardan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishni ko'zda tutadi,-deb ta'kidlaydi.

Tadqiqot ishini tayyorlash jarayonida muammoga oid adabiyotlarni, ilmiy maqolalarni o'rganish natijasida quyidagi fikrlarga keldik:

- talaba-yoshmonidan milliy mafkurani shakllantirishga to'g'risida ilmiy–tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsada, ammo kasb–hunar kolleji

talabalarida ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida bu muammoni takomillashtirishning pedagogik asarlari yaratilmagan;

- muammoni hal qilishning pedagogik texnologiyalarini yetarlicha ishlab chiqilmagan;
- kasb–hunar kolleji talabalarida milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy – gumanitar fanlarning hozirgi holati va imkoniyatlari yetarlicha tahlil etilmagan;

Shuning uchun ham ushbu vazifalarni amalga oshirish lozim:

- kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy jarayonlarning mazmuni va uning jamiyatimiz hayotida tutgan o`rni to`g`risida kengroq tushunchalar berish lozim;
- talabalarda mafkuraviy tafakkurni shakllantirish;
- talabalarning mafkuraviy faoliyatlarini tashkil etish borasida bilim, ko`nikma va malakalarini hosil qilish;
- talabalarning ongida, qalbida milliy mafkurani shakllantirishda, uzluksiz tizimli ta`lim–tarbiyani yo`lga qo`yishga e`tiborni qaratish kerak.

Kasb–hunar kolleji talabalarida mafkurani shakllantirishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- talabalarga Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag`rikenglik to`g`risida yetarlicha bilim berish;
- davlatimiz rahbarining farmonlari, hukumatimiz qonun va qarorlarini o`rganish va ularni hayotga tadbiq qilish;
- talabalar qalbida milliy mafkurani tizimli shakllantirishni yo`lga qo`yishni;
- talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy– gumanitar fanlarni imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni yo`lga qo`yish;
- milliy mafkuramizni jamiyatimizda tinchlik–totuvlik, taraqqiyotning mustahkam kafolati, insonlarga xos ma`naviy fazilatlarni

mujassamlashtirilgan mafkuraviy tizim ekanligini ularning ongiga singdirish.

Kasb – hunar kolleji talabalarida milliy mafkurani shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirish belgilab olindi:

- ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida talabalarning milliy mafkurani o`zlashtirishga bo`lgan qiziqishni qaror toptirish;
- talabalarni dunyoqarashini shakllantirishda milliy mafkuraning bosh va asosiy g`oyalariga tayanish;
- ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida milliy mafkurani shakllantirishga xizmat qiladigan ta`lim–tarbiyaning shakl, metod va usullarini belgilab bo`lish va amaliyotga tadbiq etish.

Albatta, talabalar ongiga milliy mafkurani shakllantirishda masalaning pedagogik–psixologik jihatlariga e`tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Bunda talabalarni o`ziga xos xarakter, qobiliyati, ruhiy holatlari kabi xususiyatlaridan kelib chiqib, mafkuraviy ta`lim–tarbiyaning mezonlarini tashkil etuvchi mas`uliyat, e`tiqod, imon kabi ma`naviy sifatlarini mukammal tizimda ular ongi va qalbida muhim o`rin egallashiga qo`yilgan faoliyatni tashkil etish lozim. Shaxsning mafkuraviy yetukligini belgilovchi jihatlardan biri uning qalbi va ongidagi fikrlarning mustahkam o`rin olishidir. Qalb ongi va g`oyaviylik uzviylik asosida insonning mafkuraviy immuniteti shakllanadi hamda uning mustahkamligi imon va e`tiqod bilan belgilanadi.

Iymon (arabcha so`z bo`lib, ishonch va e`tiqod) murakkab tafakkur tarsi va kuchli xotiraga ega inson muayyan fikr, oliy g`oyaning haqiqatligiga komil ishonchdan iborat shaxsdagi ruhiy holat. Iymon ongi va ruhiyariiga singan, undan mustahkam o`rin olgan g`oya va dunyoqarash sifatida qudratli harakatlantiruvchi kuch, inson irodasini mustahkamlash vositasidir. Iymon olamni, undan odam o`z o`rnini va maqomini bilish, jamiyatlashgan odam–inson sifatida namoyon bo`la olishning zarur shartidir. Iymon tufayli odam ruhi ezgulikni qaror toptirish tomon yo`nalish olib, ijtimoiy – siyosiy hayotning insoniylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Iymon markazida muayyan dunyoqarash, odamga, olamga va ularning turli uyushmalariga munosabat belgilash yotsada, ammo umuminsoniy–axloqiy qadriyatlar, soʻz va ish birligi, insof, diyonat, halollik, poklik, vijdonlilik, sadoqat, muhabbat, til va dil birligi, vatanparvar, shuningdek, oila, jamiyat, xalq va butun insoniyat oldidagi burchni anglash kabi fazilatlar iymonlilik shartlari hisoblanadi. Ishonch va iymon tushunchalari kundalik hayotda koʻpincha bir maʼnoda qoʻllaniladi. Iymon ishonchga nisbatan chuqur mazmunga ega. U dunyoqarash bilan uzviy bogʻliq boʻlganligi sababli alohida namoyon boʻladi.

Eʼtiqod – (ishonch, iymon) muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur. Bilim eʼtiqodni vujudga kelishi uchun eng muhim asos vazifasini bajaradi. Eʼtiqodni mustahkam boʻlishida bilim yagona asos deb boʻlmaydi. Inson ongida qayta ishlab chiqilgan, tajribadan oʻtgan bilimliridir. Bilim eʼtiqodga aylanishi uchun bir necha bosqichni bosib oʻtadi. Chunonchi, bilim oʻz taraqqiyotining dastlabki bosqichida anglash bosqichini bosib oʻtadi. Anglab olingan bilim, oʻz taraqqiyotining ikkinchi bosqichida tushunish holatiga kiradi. Inson bilimlarini maʼno va mohiyatini tushunib yetgach uning toʻgʻriligiga ishonch hosil qiladi. Tajribadan maʼlumki, faqat mustahkam eʼtiqodga aylangan bilim inson faoliyatini takomillashtiradi. Inson eʼtiqodni nafaqat turli haqiqatlarni oʻzida aks ettirgan bilimlarga, balki oʻsha bilimlarga bergan bahosiga unga boʻlgan munosabatiga ham bogʻliq boʻladi. Shu bois, bilimni eʼtiqodga aylantirish jarayonini tahlil etganda, bilim ijtimoiy amaliyotning natijasi, insonning bilish borasidagi faoliyatining hosilasi ekanligini unutmaslik darkor. Eʼtiqod quyidagi uch holatni bosib oʻtadi:

- a) bilim, gʻoya, nazariya;
- b) bilimlarga berilgan bahoni, munosabatni;
- c) oʻzlashtirilgan bilimlarni oʻz hatti–harakatiga tadbqiq etish, oʻsha bilimlar asosida oʻz hatti – harakatini tartibga solishdir.

Inson dunyoqarashining asosiy komponenti sifatida eʼtiqodni bilish, baholash, boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi. Uning bilish funksiyasi asosida olamdagi turli hodisalar, voqealar jarayonlari sodir boʻlishiga doir bilimlar yotsa,

baholash funksiyasini o`zlashtirib olingan bilimlarga tayanib, sodir bo`layotgan o`zgarishlar ma`nosi va mohiyatini tushunib olish bilan bog`liq bo`ladi. E`tiqod inson dunyoqarashining eng barqaror elementidir. Insonning hayotidagi pozitsiyasi, uning turmush tarzining mazmuni xuddi shu komponentning mustahkamligiga, barqarorligiga bog`liq. Chinakam bilimga, turmush sinovlaridan o`tgan ilmiy g`oyaga, nazariyaga asoslanmagan e`tiqod g`ayriilmiy e`tiqoddur.

Talabalarni mafkuraviy jihatdan tarbiyalashda fuqarolik mas`uliyati tuyg`usini shakllantirish, ularning ijtimoiy hayotga faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mas`uliyat** – ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishiga, oqibatiga hatti – harakati negizida yotgan axloqiy tamoyillarga amal qilinishiga muayyan kimsa yoki sotsial guruhning javobgarligini bildiradigan axloqiy kategoriyadir. Mas`uliyat quyidagi jihatlarga ega bo`ladi; yosh avlodni jamiyatga tayyorlash, jamiyat a`zolarining burchi, ammo tarbiya va ta`limga ota – ona va muallimlar javobgar; vazifani bajarishga faqat salohiyatli mutaxassislar mas`ul, kishilar hamma narsaga emas, balki o`ziga topshirilgan ishga mas`ul. Mas`uliyatning tub ildizi ijtimoiy manfaatlar bilan bog`liq. Mas`uliyatli kishi o`z faoliyatini muntazam tizim asosida tashkil etadi, ma`lum vazifalarni hal etishda oldindan ko`ra olish salohiyatini mujassamlashtira oladi. Shuning uchun ham yurtboshimiz bu haqda to`xtalib, “Yosh avlodimiz ongida va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega”, -deb ta`kidlagan edi.

Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g`oyaviy ta`sirlardan himoya qiladigan g`oyaviy – nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi. Immunitet lotincha so`zdan olingan bo`lib, ozod bo`lish, qutilish degan ma`noni bildiradi. Soda qilib aytganda, immunitet kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qilish qobiliyatidir. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy elementi, bu bilim. Ammo bilimlarning turi. Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdorlari ham muayyan “bilimga” tayanadilar, albatta. Qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g`oyalar yo`lida mustahkam qalqon bo`lib xizmat qiladi.

Yurtboshimizning asarlaridagi, ma`ruzalaridagi g`oyalarga tayangan holda shakllangan milliy mafkura jamiyat hayotiga tadbqiq etilib, muayyan bosqichni bosib o`tdi. Milliy mafkurani mazmunini anglash va o`rganish ehtiyojini ta`minlashga qaratilgan faoliyat jarayonida ushbu g`oyalarga qiziqish hosil bo`ladi. Qiziqish talabalarni mafkuraviy bilimlarni egallashga yo`naltiradi va maqsadga aylanadi. Maqsad mazmunini ifodalovchi, g`oyalar amaliy harakatlarni tashkil etish motivlari vujudga keladi. Motivning o`zida quyidagi xususiyatlarni aks ettiradi: vatanparvarlik, davlatimiz rahbari ilgari surayotgan g`oyalar, asosiy qonunimiz bo`lgan – Konstitutsiya, davlatimiz ramzlariga bo`lgan hurmatni qaror toptirish, jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini teran anglash, har qanday yot g`oyalarga qarshi kurashish, insonparvarlik, fuqarolar manfaatlari, sha`ni, erki, or – nomusi, qadr – qimmatini ko`tarish, inson va jamiyat o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni anglash, milliy mafkuramizning ilmiy asoslangan mazmuniga tayanish va boshqalar.

Mafkuraviy munosabatlar jarayonida kasb – hunar kollejlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mafkuraviy tarbiyani tashkil qilishda talabalar faoliyatini mazmunan tahlil qilish, ularda o`z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish lozim.

Kasb – hunar kollejlari faoliyati mazmuniga jamoat ishlari talabalar bilim darajasini oshirib borish, auditoriyadan tashqari o`tkaziladigan turli tadbirlar tashkil etib, mas`uliyat va javobgarlikni his etish, jamoaga bo`ysunish, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, o`zini tuta bilish, tengdoshlarning fikrlarini hisobga olish, hamkorlik tuyg`usini o`zida mujassamlashtiradi.

Demak, talabalarda milliy mafkurani singdirish jarayonida, ularda iymon – e`tiqod, sog`lom dunyoqarash, vatanparvarlik, fidoiylilik, madaniyatlilik, insonparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi.

1.2. Ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning holati va imkoniyatlari

Mustaqillik sharoitida barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishi qilib belgilandi. Ushbu vazifani amalga oshirishning pedagogik, psixologik asoslari kadrlar tayyorlash milliy dasturida o`z ifodasini topgan. Dasturda “Talabalarning fanlar asoslari bo`yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o`zlashtirish ehtiyojini, asosiy o`quv– ilmiy va umummadaniy bilimlarini milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma`naviy–axloqiy fazilatlarni, menat ko`nikmalarini, ijodiy fikrlash, atrof–muhitga ongli munosabatda bo`lish va kasb tanlashni shakllantiradi”,-deb ta`kidlanadi. Bu masalalarning yechimini topishda tarbiya muhim rol o`ynaydi.

Hozirgi kunda milliy merosimizni axloqiy, tarixiy, milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan o`rganishimiz lozim. Bu esa oson kechmaydi. Sababi, milliy merosni o`rganish har birimizdan yuksak ma`naviy – axloqiy sifatlarni talab qilish bilan birga tarix, ma`naviy meros, jamiyat ijtimoiy –iqtisodiy, siyosiy rivojlanishi, milliy istiqlol g`oyasi, mafkura va siyosatni bilishni ham taqozo qiladi. Milliy merosga hozirgi ijtimoiy talablar yosh avlod tarbiyasi nuqtai nazaridan yondashishni talab qiladi.

Kasb–hunar kolleji talabalarida ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida milliy mafkurani shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini o`rganishga e`tiborni qaratdik. Bundan tashqari, tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning holatini o`rganishga e`tiborni qaratdik.

Tadqiqot natijalariga ko`ra o`quvchlarni mafkuraviy tarbiyalashda imkoniyati yetarli bo`lgan predmetlar ijtimoiy–gumanitar fanlar ekanligi ma`lum bo`ldi. Kasb–hunarida o`qitiladigan o`quv–fanlari, yuklamalarni kasb–hunar ta`limining davlat ta`lim standartlari asosida olindi.

“Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” 3-kurs talabalari uchun quyidagicha o`qitib kelinmoqda:

1-jadval

Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar

(39 soat)

T/r	Fan bo`limlari va mavzulari	Dars turlari bo`yicha soatlar taqsimoti		
		Nazariy	Amaliy	Jami
1	Kirish. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fanini o`rganishning ahamiyati.	2		2
I Bo`lim. G`oya va mafkuralar tarixi				
1	G`oya va mafkuralarning jamiyat taraqqiyotidagi o`rni	1	1	2
2	G`oya va mafkuralarning tarixiy shakllari	1	1	2
3	Milliy g`oya va mafkuralarning falsafiy tarixiy manbalari	2	2	4
II Bo`lim. Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash				
1	Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi	2		2
2	Mafkuraviy jarayonlarning umum-bashariy va mintaqaviy ko`rinishlari	2	2	4
III Bo`lim. O`zbekiston taraqqiyoti va mafkuraviy muammolari				
1	O`zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat	2		2
2	O`zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va ma`naviy sohada olib borilayotgan islohotlar. Erishilgan yutuqlar. O`lka-shunoslik muzeylarida amaliy dars.		2	2
3	Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi	1	1	2
4	Globalashuv jarayonlari va ma`naviy tahdidlar	1	1	2
IV. Bo`lim. Milliy mafkura va uning asosiy tamoyillari				

1	Milliy mafkuraning mohiyati va mazmuni	1	1	2
2	Milliy mafkuraning maqsad va vazifalari	1	1	2
3	Milliy mafkuraning asosiy tamoyillari	1	1	2
4	Milliy g`oya va mafkuraviy hayot	1	1	2
V Bo`lim. G`oyaviy tarbiya va mafkuraviy immunitet				
1	Inson qalbiga yo`l tarbiyadan boshlanadi	2	2	4
2	Komil insonni voyaga yetkazishda mafkuraviy tarbiya omillarining ahamiyati	1	2	3
Jami:		21	18	39

“Ma`naviyat asoslari” 3-kurs talabalari uchun quyidagicha o`qitib kelinmoqda:

2-jadval

Ma`naviyat asoslari
(40 soat)

T/r	Fan bo`limlari va mavzulari	Dars turlari bo`yicha soatlar taqsimoti		
		Nazariy	Amaliy	Jami
1	Kirish. “Ma`naviyat asoslari” fanining predmeti, tushuncha ta`rifi hamda tarkibiy qismlari	1	1	2
2	O`zlikni anglashda ma`naviyatning o`rni	1	1	2
3	Ma`naviy meros, madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar	1	1	2
4	O`rta Osiyolik mutafakkirlarning jahon madaniyati rivojiga qo`shgan hissassi	1	1	2

5	Din va madaniyat. Islom dini va tasavvuf ta'limotida ma'naviy barkamol inson masalasi	1	1	2
6	Ta'lim tarbiya tizimi-inson ma'naviyatini shakllantirishga bevosita ta'sir etuvchi omil	1	1	2
7	Insonparvarlik, vatanparvarlik va tinchliksevarlik–shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi	1	1	2
8-9	Eng buyuk jasorat	2	2	4
10	Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi	2		2
11	Ma'naviyat va iqtisodiyot, ularning o'zaro munosabati hamda jamiyat hayotida tutgan o'ni	1	1	2
12	Ma'naviyatni anglashda ona tilining o'ni	1	1	2
13	Islahotlar va ularning ma'naviy mezoni	1	1	2
14	Ma'naviyatga tahdid – o'zligimizga va kelajagimizga tahdid	1	1	2
15	Mehr – qalb ozig'i	1	1	2
16	Tinchlik – xotirjamlik	1	1	2
17	O'zligimizning yorqin ifodasi.....	1	1	2
18	Muhabbat va erkinlik	2		2
19	Kasb bilan komildir inson	1	1	2
20	Mamlakat taraqqiyotidagi ma'suliyatni his etish yoshlarning yuksak ma'naviy burchi	1	1	2
Jami:		22	18	40

“O`zbekiston tarixi” 2-kurs talabalari uchun o`quv yili davomida quyidagicha o`qitib kelinmoqda:

3- jadval

O`zbekiston tarixi II-kurslar
(36 soat)

T/r	Mavzular nomi	Nazariy	Amaliy	Ja mi
1.	O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining e`lon qilinishi.	1	1	2
2.	O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va davlat ramzlarining qabul qilinishi.	1	1	2
3.	O`zbekiston Respublikasining ma`muriy – hududiy tuzilishi. Aholining milliy tarkibi	1	1	2
4.	O`zbekiston Respublikasining o`z taraqqiyot yo`li	1	1	2
5.	O`zbekiston Respublikasi parlamenti. Oliy Majlisning tashkil etlishi.	1	1	2
6.	O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning qonunchilik faoliyati.	1	1	2
7.	Ikki palatali parlamentni shakllantirishning Konstitutsiyaviy asoslari.	2		2
8.	Milliy davlat boshqaruv hokimiyati tizimining barpo etilishi. Mahalliy o`zini – o`zi boshqarish demokratik saylov tizimi	2		2
9.	Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi	2		2
10.	O`zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o`tish yo`li	1	1	2

11.	Davlat mulkini xususiylashtirish. Ko`p ukkladli iqtisodiyot va mulkdorlar tabaqasini shakllanishi	2		2
12.	O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqarorlashuvi va taraqqiyoti	1	1	2
13.	Aholini ijtimoiy himoyalash va millatlararo totuvlikning mustahkamlanishi	1	1	2
14.	Milliy xavfsizlik va mamlakatda mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi	1	1	2
15.	Ma`naviy meros. Milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi	1	1	2
16.	Ta`lim va madaniy ravnaq. Jismoniy tarbiya va sport	2		2
17.	Xalqaro ahvol: O`zbekiston Respublikasining tinchliksevar siyosati va jahon hamjamiyatiga qo`shilishi	2		2
18.	O`zbekiston Respublikasi MDH va xorijiy mamlakatlar bilan o`zaro manfaatli aloqalari	1	1	2
Jami:		24	12	36

Ushbu jadvaldan ko`rinib turibdiki, birinchi dars mashg`uloti “O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining e`lon qilinishi” deb nomlanadi. O`qituvchi mavzuga tayyolanar ekan, mustaqillikning buyuk ne`mat ekanligini, o`tgan yigirma yil davomida jamiyat hayotining barcha sohalarida qo`lga kiritilgan yutuqlarni hayotiy misollar orqali talabalarga yetkazish lozim. Aniqrog`i talabalarda mustaqillik barpo etayotgan jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy, ma`naviy asoslarini mustahkamlash, erkin demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda etishda milliy mafkuraning ahamiyati to`g`risidagi bilimlarni shakllantiradi. XX asr oxiriga kelib, tazyiqqa asoslangan sobiq totalitar tuzum va kommunistik mafkura tanazzulga uchradi, mustaqil davlatlar shakllandi. O`zbekiston ham 1991 yil 31 avgustdan mustaqillikka

erishib, o'z yo'lini belgilab oldi. Mustaqillikka erishish orzusi xalqimizga azaldan meros bo'lib qolgan. Bu g'oya uzoq yillar davomida bizgacha yetib keldi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "O'zbek millati azaldan o'z fikr–zikri, o'z istiqloli uchun kurashib yashagan, bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoiy, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlari borligini bilish lozim. Bilishimiz shart bo'lgan sahifalarni qunt bilan o'rganish hammamiz uchun qarz, ham farz",-deganda ana shularni ko'zda tutgan. Xalqimiz azaldan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun intilgan.


Mustaqillik – bu xalqning ozodligi, milliy davlatning tiklanishidir, u tenglik sari qo'yilgan qadam. Sababi, tenglik bo'lmagan joyda kim – kimgadir tobe' bo'ladi. Mustaqillik –butun dunyo xalqlarining umuminsoniy qadriyatlarga tayanib, umumiy mezonlar asosida yashashi demakdir. Mustaqillik – o'z xalqining taqdiri haqida o'ylashdir. Shu yo'lda kurashish, ogoh va faol bo'lishdir. Shunday muammolar dunyoning shiddatli muammolari oldida dolzarb qolmaydi.

Mustaqillik kafolatlariga –siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy– ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy kafolatdir. Mustaqillik mafkurasi–butun O'zbekiston xalqining g'urur va iftixorini, qudratini, orzu – intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' ma'naviy kuchdir. Milliy mafkuraning asosiy maqsadlaridan biri O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat va elat yoshlarini barkamol avlod qilib tarbiyalash ularni mustaqillikning ongli, fidoiy kimsaga aylantirishdir. Mamlakatimiz fuqarolarida Ona–Vatanga bo'lgan muhabbat qanchalik kuchli bo'lsa, har bir inson o'z Vatani tarixini, milliy qadriyatlarini, o'z xalqi va madaniyati, milliy urf–odatlarini mukammal bilsa, mustaqillik shunchalik abadiy bo'ladi.

Mustaqillik mafkurasi zaminida ajdodlarimizning tajribalari, xalqimizning azaliy an'analari, urf–odati, rasm–rusumlari yotadi. Milliy mafkuramiz xalqimizning milliy merosiga, ma'naviyati hamda umuminsoniy qadriyatlariga asoslanadi. Milliy, umuminsoniy, axloqiy, diniy qadriyatlar mafkuramizning insonparvarlik mohiyatini to'ldiradi va boyitadi. Ularni halol va pokiza, xayr– ehsonli, saxovatli bo'lishga, yoru birodarlarini qo'llab quvvatlashga, mehnatni sevishga, tabiatni e'zozlashga da'vat etadi.

Mustaqillikni mustahkamlash uchun farzandlarimizda quyidagi komil insonga xos xislatlarni tarbiyalashimiz kerak:

2 – chizma



Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashi uchun har bir kishi ezgu fikrli, yaxshi so`zlarni ishlatadigan, odobli, yaxshi xulq-atvorli bo`lishi lozim. Shuningdek, har bir kishi faol mehnat qiladigan, talabalar yaxshi baholarga o`qishi, zamonaviy bilimlarni egallash uchun faol mehnat qiladigan, talabalar yaxshi baholarga o`qishi, zamonaviy bilimlarga egallash uchun faol harakat qiladigan, ota – onalarga yordam beradigan bo`lishi kerak.

Muammoning kollejlardagi hozirgi holatini aniqlash maqsadida pedagogika kolleji 2–kurs talabalarini mafkuraviy shakllanganlik darajasini aniqlash so`rovnomasini o`tkazdik (2-jadval). So`rovnomada Vatanimiz tarixiga qiziqasizmi? O`z qanday tasavvur qilasiz? Kabu savollar berildi. Talabalar bilan og`zaki suhbatlar, savol–javoblar o`tkazilib, ularning xabardorlik darajasi tekshirildi. Ushbu anketadagi savollarga nazorat guruhlaridagi 28 nafar talabadan 20 nafari qoniqarsiz, 6 nafar qoniqarli, ammo to`liq bo`lmagan javobni berishdi, 2 nafari esa o`z kelajagin qanday tasavvur qilishini aniq javobni bera olmadi. Sinov guruhlaridagi 32 nafar talabadan 18 nafar qoniqarsiz, 8 nafar qoniqarli, 6 nafar yaxshi javob berdilar. Ularning javoblari quyidagicha ifodalanadi.

Talabalarning javobi tahlili

t/r	Javoblar	Mafkuraviy tushunchalar	
		Nazorat guruhi	Sinov guruhi
1.	Qoniqarsiz	20	18
2.	Qoniqarli to`liqmas	6	8
3.	To`g`ri	2	6
4.	Jami talaba:	28	32

Sinov guruhlaridagi talabalarning ko`pchiligi qoniqarsiz javob bo`lganligi sababli talabalar bilan an`anaviy tartibda olib borilishi, o`qituvchlarning o`quv rejalaridan chetga chiqa olmayotganligini ko`rsatdi. Ushbu anketadagi “Qaysi predmetlarni ko`proq yaxshi ko`rasiz va nima uchun?”, “Ijtimoiy – gumanitar fanlardan saboq berayotgan ustozlaringizni qaysi fazilatlari sizga ko`proq yoqadi?”, “O`z huquq va burchlaringizni bilasizmi?”–degan savollarga tajriba-sinov va nazorat guruhlaridan talabalar quyidagicha javob berdilar:

“O`z huquq va burchlaringizni bilasizmi?” – degan savolga berilgan javoblar tahlili

t/r	Javoblar	Mafkuraviy tushunchalar	
		Nazorat guruhi	Sinov guruhi
1.	Qoniqarsiz noto`g`ri	16	14
2.	Qoniqarli to`g`ri bo`lmagan	7	11
3.	Yaxshi (to`g`ri)	5	7
4.	Jami talaba:	28	32

Sinov guruhlarida talabalar nazorat guruhlaridagi farqning sababi shundaki, bunda talabalarga berilgan savollar yuzasidan mayyan tushunchalarni berishimiz, shuningdek dars jarayonida bu haqda suhbatlar uyushtirishganligi ijobiy natija berdi.

“Badiiy kitoblar, kundalik gazeta va jurnallarni o`qib borasizmi?” – savoli
tahlili bo`yicha olingan javoblar miqdori

t/r	Javoblar	Badiiy kitoblar, kundalik gazeta va jurnallarni o`qib borasizmi?	
		Nazorat guruhi	Sinov guruhi
1.	Qoniqarsiz (noto`g`ri)	20	22
2.	Qoniqarli to`liq bo`lmagan	5	6
3.	Yaxshi (to`g`ri)	3	4
4.	Jami:	28	32

Bu savolga nazorat guruhidagi talabalarning 20 nafari qoniqarsiz, 5 nafari qoniqarli, 3 nafari esa to`g`ri navbat berishdi. Tajriba–sinov guruhidagi 32 nafar talabaning 22 nafari qoniqarsiz, 6 nafar qoniqarli, 4 nafar to`g`ri javob berishdi. Qoniqarsiz javoblar deb, “yo`q”, “ba`zida” kabi javoblarni belgiladik. Qoniqarli javoblarga “har zamonda”, “vaqti – vaqti bilan” kabi javoblarni kiritdik. Yaxshi (to`g`ri javoblar) deb “ha”, “o`qib boraman” kabi javoblarni kiritdik. Tajriba – sinov guruhlarida ijobiy natijalarning ko`proq chiqishiga sabab, sinov darslarining mazmuni, rejasi, maqsadning ochiq hamda nazorat guruhlariga nisbatan to`liqroq berilishidadir.

3 – kurs talabalariga 50 ta test savollari tuzilgan bo`lib, ularga 4 tadan javoblar berildi. Talabaning vazifasi to`g`ri javobni belgilash edi. Testga quyidagi savollar – “Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatilishi mumkin emas”. Bu so`zlar O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida bayon qilingan?, Milliy g`oya...?, Mafkura bo`lmasa...?, “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir”. Bu so`zlar kimniki? Amir Temur tomonidan Oqsaroy peshtoqiga yozilgan “Qudratimizni ko`rmoq istasang...”, Jaholatga qarshi kurashning quroli nima?, Xoja Ahmad Yassaviy qalamiga mansub asarni ko`rsating?, Qariyb uch ming yil oldin

yaratilgan “Avesto” bebaho ma’naviy obida mamlakatimizning qaysi hududida yaratilgan?, “Alpomish” dostonining asosiy fazilatlari ko’proq nimalarga qaratilgan?, “Hidoya”(“to’g’ri yo’l”) asarining muallifi kim?, ... Quyidagi qaysi shaharning 2700 yilligi YUNESKO ishtirokida keng bayram qilindi?, “Tarix – xalq ma’naviyatining asosidir”, “Xotira va qadrlash kuni”ni bilasizmi? kabi savollar berildi. Talabalar test savollariga quyidagicha javob berishgan:

7 – jadval

“Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” fanidan test savollariga talabalar tomonidan berilgan javoblar tahlili

t/r	Javoblar	“Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” fanidan test savollariga talabalarning javoblari	
		323 – guruh	311 – guruh
1.	To’g’ri javoblar (o’rtacha ko’rsatilgan)	26	29
2.	Noto’g’ri javoblar (o’rtacha ko’rsatilgan)	24	21
3.	Jami :	50	50

Test savollariga javob berishda 323 – guruh talabalarining 6 – 5 nafari 25 – 26 ta test savollarini to’g’ri topishgan bo’lsa, 18 nafari 22 – 24 ta atrofida test savollariga to’g’ri javobni belgilashgan. 311 – guruh talabalarida 3 nafari 30 – 31 ta test savollariga to’g’ri javob berishgan, 4 nafari 28 – 26 tadan to’g’ri javobni belgilagan bo’lsa, 8 nafari 22 – 26 tadan to’g’ri javobni topishgan, 10 nafari 14 tadan 21 tagacha to’g’ri javobni to’g’ri belgilay olgan.

Milliy mafkura, ma’naviyat, milliy g’oya to’g’risida ma’lumot berishda “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”, “Huquqshunoslik”, “O’zbekiston tarixi”, “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” kabi fanlarning hamda auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlaridan foydalandik.

Kasb–hunar kolleji talabalarida milliy mafkurani shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinganda ijtimoiy–gumanitar fanlarning imkoniyatlarga katta ekanligi, ammo bu imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayotganligi maʼlum boʻldi. Shu bois, ijtimoiy –gumanitar fani yoʻnalishidagi olimlar va amaliyotchi oʻqituvchilar, pedagoglar oldida turgan vazifalardan biri kasb–hunar kolleji talabalarida milliy mafkurani shakllantirishning yangi zamonaviy usullarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilishdek vazifa turibdi. Aniqrogʻi kasb–hunar kolleji talabalarida milliy mafkurani shakllantirishda oʻquv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosiga qurish lozim. Kasb–hunar kolleji talabalari uchun ijtimoiy–gumanitar yoʻnalishidagi fanlarning yangi avlodini yaratishda bu borada qoʻlga kiritilgan yutuqlar eʼtiborga olinishi maqsadga muvofiq. Kasb–hunar kollejlarda ijtimoiy–gumanitar fanlardan saboq berayotgan oʻqituvchilarning saviyasi yuqori boʻlishi, ular uchun metodist olimlar tomonidan oʻquv–uslubiy adabiyotlar, tavsiyanomalar, koʻrgazmali qurollar yaratilib, amaliyotga tatbiq etilsa, bu muammoning yechimi topilgan boʻladi.

Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri. 2005–yil 13–avgust kuni “Maʼrifat” gazetasida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻzbekiston xalq taʼlimi vazirligi va Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Talaba–talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol gʻoyasini singdirishda taʼlim–tarbiyaviy ishlarni oʻzaro uygʻun holda tashkil etish boʻyicha uslubiy tavsiyalar” eʼlon qilingan edi. Bu uslubiy tavsiyalarda taʼlimning barcha bosqichlarida mafkuraviy tarbiya olib borish, jumladan, maktabgacha, umumiy oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus kasb–hunar va oliy taʼlim muassasalarida, “Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining oʻqitilishiga doir mulohazalar va tavsiyalar eʼlon qilinib, taʼlimning har bir bosqichida oʻtiladigan asosiy mavzular masalasiga asosiy eʼtibor qaratilgan edi.

Oʻrta maxsus va kasb–hunar taʼlim muassasalari uchun nashr etilgan talabalar mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirishga yordam beruvchi “Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” darsligi Toshkent “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti tomonidan 2003–yilda nashr etilgan boʻlib,

akademik litsey va kasb–hunar kollejlari uchun asosiy darslik bo`lib kelmoqda. Darslikning birinchi qismi nazariy mashg`ulotlar, ikkinchi qismi amaliy mashg`ulotlar deb nomlanib, darslik so`ngida qo`shimcha va ixtiyoriy mavzular berilgan, uchinchi qismida asosiy tushuncha va atamalarning qisqacha lug`ati berilgan.

Bugungi kunda talabalarda mafkuraviy dunyoqarashni shakllantirishda biz avvalo O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, risolalari va nutqlaridan kelib chiqadigan muayyan mafkuraviy tarbiya vazifalariga asosiy e`tiborni qaratamiz.

Samarqand 1–son pedagogika kolleji talabalariga 1–3 kurslarda “Prezident asarlari” maxsus kursi o`tiladi. Yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, “Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” darsligi 44 soatlik o`quv rejasidagi soatlarga mo`ljallangan holatda tuzilgan bo`lib, darslikning yutug`i amaliy mashg`ulotlarning talabalar o`rtasidagi bahs–munozaralariga, turli–tuman ko`rgazmali qurollarga tayangan holatda tashkil qilinishidir.

Milliy istiqlol g`oyasi fanining bahs–mavzusi, maqsad va vazifalari “g`oya” va “mafкура” tushunchalarining mohiyati va mazmuni, g`oya va mafkuraning tarixiy shakllari, hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash, Markaziy Osiyo, geosiyosat va mafkuraviy jarayonlar, Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz, Taraqqiyotning o`zbek modeli, Milliy istiqlol g`oyasining asosiy tamoyillari, Milliy istiqlol mafkurasining maqsadi va vazifalari, bunyodkor g`oyalar, istiqlol va g`oyaviy tarbiya, komil inson davlatimiz tomonidan olib borilayotgan mafкура sohasidagi siyosatining ma`no–mohiyati muayyan ketma–ketlikda bayon qilib berilgan. Ba`zi mavzular turli mualliflar tomonidan yozilgani uchun takrorlashlar bor.

Umuman olganda ta`lim tizimi, shu jumladan kasb–hunar kollejlari olib boriladigan dars jarayoni talabalarda mafkuraviy dunyoqarashni shakllantirishda yo`naltirilgan bo`lib, barcha fanlar shu jumladan, ijtimoiy–gumanitar fanlarni eng avvalo talabalar mafkuraviy dunyoqarashining shakllantirishiga xizmat qiladi. Masalan, boy tarixiy merosimiz mutafakkirlarimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan

ilmiy tadqiqotlar milliy mafkuraga tayanadigan, fuqarolarimizda milliy gʻurur, iftixor tuygʻularini uygʻotadigan mafkuraviy asosdir. Milliy mafkurani talabalar ongi, tafakkuriga singdirish dars jarayoni va darsdan tashqari tarzda olib borilib, dars jarayonida ota-bobolarimizning shonli oʻtmishda yaratilgan boy moddiy va maʼnaviy madaniyati durdonalari, mutafakkirlarning ijodiga eʼtibor qaratilsa darsdan tashqari mafkuraviy, tarixiy, meʼmoray yodgorliklarni borib koʻrish, kutubxonalardagi maʼnaviy–madaniy yodgorliklar, ilmiy, falsafiy, tarixiy, axloqiy, estetik, badiiy mavzudagi kitoblarni mutolaa qilish, turli maʼnaviy–maʼrifiy sohalarda maʼruzalar, bahs, munozaralar, davra suhbatlari oʻtkazish orqali shakllantiriladi. Talaba–yoshlarning muzeylar, turli koʻrgazmalar, ilmiy, ijodiy kechalardagi ishtirokini taʼminlashi, talabalar oʻrtasida turli mavzulardagi bellashuvlarni tashkil etish, ularda ishga masʼuliyat, ijodiy yondashuv koʻnikmalarini shakllantirib, mafkuraviy taʼsir koʻrsatadi.

Oʻzbekistonning jahon hanjamiyatiga integratsiyalashib boorish jarayoni respublikaga turli–tuman axborot vositalari, adabiyotlar, radio, televideniye, internet orqali mafkuraviy taʼsirlarning kuchayishiga olib kelib, bugungi kunda talaba–yoshlar immunitetini shakllantirish, ularda vatanparvarlikni qaror toptirish, fidoiylilikni kundalik faoliyatga aylantirish, taʼlim–tarbiya tizimi oldidagi eng muhim mafkuraviy vazifalardan boʻlib hisoblanadi.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, informatsion inqilob, globallashuv jarayonlari, jahon maydonlarini taʼsir oʻtkazish maqsadida boʻlib olishga intilishning kuchayishi, bugungi kunda milliy gʻoya va milliy mafkuraga boʻlgan talab va ehtiyojni kuchaytirib, mafkuraviy tarbiya olib borish hozirgi kunda respublikamizdagi har bir ziyoli, taʼlim–tarbiya bilan shugʻullanuvchi kishilarning eng muhim fuqarolik burchidir. Shu bois, 1–son pedagogika kollejida mafkuraviy –tarbiyaviy vositalarini yanada takomillashtirishni hayotning oʻzi taqozo qilmoqda.

Mafkuraviytarbiyani maqsad sari yoʻnaltirib, kutilgan natijalarga erishish uchun sogʻlom muhit va shu muhit negizida yaratilgan mustahkam moddiy, maʼnaviy poydevor bunyod etilmogʻi zarur. Mafkuraviy tarbiya jamiyat hayotining

barcha sohalarini qamrab olishi lozim, bu jarayonning bir qator muhim jihatlarini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Bular quyidagilardir:

- jamiyat miqyosida g'oyaviy–mafkuraviy birlikni, yakdillikni targ'ibot–tashviqotqiluvchi va bu vazifani joylarda amalgam oshiruvchi ijtimoiy institutlarga ehtiyoj sezilmoqda;
- mafkuraviy–tarbiyaviy targ'ibot bilan bevosita shug'ullanuvchi maxsus guruhlarning mustahkam moddiy–texnikaviy asosga ega bo'lgan hamda moliyaviy ta'minlanishi;

Ushbu omilar mafkuraviy targ'ibot sifati va samaradorligi, uning ta'sirchanlik quvvati darajasini belgilab borishi, shubhasiz.

Kasb–hunar kolleji talabalarida ijtimoiy–gumanitar fanlar asosida mafkurani shakllantirishning imkoniyatlari yetarli ekanligiga ishonch hosil qildik. Jumladan:

- ijtimoiy–gumanitar fanlardagi har bir mavzu, bob talabalarda mafkurani shakllantirishga xizmat qiladi;
- kasb–hunar kolleji talabalarida mafkurani shakllantirishda ijtimoiy–gumanitar fanlarni o'qitish yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitilishiga e'tiborni qaratish lozim;
- ijtimoiy–gumanitar fanlardan ba'zi dars mashg'ulotlarni Samarqand shahridagi muzeylarda, tarixiy joylarda o'tish maqsadga muvofiq;
- kasb–hunar kolleji talabalari bilan viloyatimizdagi shoir, yozuvchi, olimlarning uchrashuvlarini muntazam yo'lga qo'yish kerak;
- auditoriya, kollej koridorlarida, hovlisida, talabalar turar joylarida mafkurani shakllantirishga oid shiorlar, hikmatli so'zlar bilan bezatish lozim.

Ushbu vazifalar amalga oshirilganda kasb–hunar kolleji talabalarida mafkurani shakllantirishdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo'ladi.

II BOB. IJTIMOIIY–GUMANITAR FANLAR ASOSIDA KASB–HUNAR KOLLEJI TALABALARINI MAFKURAVIY TARBIYALASHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

2.1. Dars jarayonida kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning mazmuni

Mustaqilik tufayli respublikamiz hayotida uning ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy jabhalarida chuqur o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu tufayli milliy qadriyatlarimizga, o`tmish tariximizga ham munosabatimiz o`zgardi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XVI sessiyasida so`zlagan nutqida “Ma`naviyatimiz, tariximiz bizning eng katta, ko`z qorachig`idek asraydigan boyligimiz. Ular hech qachon eskirmaydi, odamni, jamiyatni ma`nan yashartirib turadigan bebaho ne`matlardir. Ana shu ne`matdan har bir kishini bahramand etish biz qurayotgan jamiyatning asosiy

maqsadidir,-deb ta'kidlar ekan,-ma'naviyatimiz va ma'rifatimizni yuksak darajaga ko'taraylik. Umumbashariy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish negizida milliy ong va demokratik tafakkur tarbiyasini kuchaytiraylik",-degan shiorni o'rta tashlab, jismonan baquvvat, aqlan yetuk, ruhan sog'lom avlod tarbiyalashda hech qanday kuch va mablag'ni ayamalikni ta'kidlab o'tdi.

Zero, mustaqillik–yangi jamiyatni shakllantirish, yangi davlatni barpo etish bilan birga ta'lim – tarbiyada yangi jamiyat fuqarolarini kamol toptirishdek katta mas'uliyatni ham qo'yadi. Ana shu yuksak vazifani hal qilishda mustaqillikni dastlabki kunlaridanoq o'tmish madaniyatimizga, qadriyatlarimizga asoslanib, mustaqillik tamoyillari belgilandi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga, milliy mafkuramizga asoslanib, jamiyatni yangilash, tariximiz, ma'naviy merosimizni tiklash, tarbiya masalalarini hal etishga jiddiy kirishildi.


Milliy mafkurani, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni belgilaydigan mezonlarni aniqlash maqsadida umuminsoniy fazilatlar va o'zbeklarga xos xislatlarni teranroq o'rganishga harakat qilinmoqda.

Binobarin, mana shu o'zimiz tanlagan mustaqil tarqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy – ma'naviy kuch – quvvat manbai, ilmiy asos – bu milliy g'oya, milliy mafkuradir.

Tarixdan ma'lumki, jismonan sog'lom, ruhan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash har bir davrning dolzarb mavzu muammosi bo'lib kelgan. Bugungi kunda kasb – hunar kolleji talabalarida odamiylik, qanoatlilik, madaniyatlilik, moslashuvchanlik, jiddiylik, mas'uliyatlilik, tirishqoqlik, ijodkorlik, tanqidiylik, poklik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish bevosita milliy mafkuraga tayanilga holda amalga oshiriladi. Bu jarayon bevosita dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tashkil etiladi.


Ma'lumki, o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli dars hisoblanadi. Hozir o'rta maxsus ta'lim tizimida qo'llanilayotgan sinf – dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

3-chizma



Ayni paytda kasb–hunar kollejlarda ta`limni tashkil qilish shakllari quyidagi turlarga olib boriladi:

4-chizma



Sinf–dars shaklida olib boriladigan mashgʻulotlar oʻqituvchining kundalik oʻquv materialini tizimli bayon qilib berishini, xilma–xil usullardan foydalanishini, talabalarning bilim, koʻnikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, talabalarni mustaqil ishlashga oʻrgatishni oʻz ichiga oladi.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashgʻulotlar sinf sharoitidan tashqarida, oʻquv ustaxonasi, tajriba yer uchastkalari va fermer xoʻjaliklari ekin maydonlarida ishlash, ekskursiyalar oʻtkazish yoʻli bilan olib boriladi.

Hozirgi zamon didaktikasi koʻp yillar davomida toʻplangan oʻqitish qoidalari, fan yutuqlari va ilgʻor tajribalar asosida boyib bormoqda deyishga asos bor. Ammo oʻquv jarayonining hamma qismlarini oʻqitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan. Bularning hammasi didaktik qoidalardan amalda foydalanishni qiyinlashtirdi. Kasb–hunar kollejlari oldida turgan yangi vazifalar va ehtiyojlar talabalarga beriladigan taʼlim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga koʻtarishni talab qiladi.

Oʻqituvchi oʻzining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng koʻp mos keladigan oʻquv jarayonini ongʻli ravishda tanlab olishi foydadan holi emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchilikka, bilim, koʻnikma va malakalarini oʻzlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yoʻl qoʻymaydi.

Shu bilan birga dars oʻqitishni tashkil etishning oʻzgarmas shakli emasligini ham inobatga olish zarur. Oʻquv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yoʻllarini izlaydi. Bu sohada turli xil koʻrik tanlovlar, malakat miqyosida oʻtkazilayotgan pedagogik oʻqishlarda oʻrtaga qoʻyilayotgan ilgʻor oʻqituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Turli–tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars maʼlum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan boʻlmogʻi lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy – siyosiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.

4. Har bir dars xilma–xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanishimiz lozim.

6. Har bir dars o'qituvchi va talabalarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

7. Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratish kerak.

8. Dars mashg'ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi talabaning individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanish imkoniyatini izlamoq lozim.

Bir soatlik darsga mo'ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi dars turlari deb yuritiladi.

Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilar hisoblanadi:

5-chizma



Har bir dars turning ma`lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu esa o`qituvchining o`quv materialini to`g`ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o`zlashtirilishini nazorat qilib borishga yordam beradi.

Ma`lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg`ulotlarda ikkinchi, hatto uchinchi dars turning elementlari bo`lishi mumkin. Masalan, kasb–hunar kollejlarda eng ko`p qo`llaniladigan dars turlaridan biri–yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

- a) yangi bilimlarni bayon qilish;
- b) yangi bilimlarni mustahkamlash;
- c) yangi bilimlar ustida mashq qilish;
- d) yangi bilimlarga bog`liq holda uy vazifalarini topshirish;

Demak, dars boshidan oxirigacha bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash, yangi bilimlar ustida mashq o`tkazish, uyga vazifa kabi boshqa elementlari bo`lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko`zlangan maqsad talabalarni yangi bilim berishga qaratilgan bo`lsa, butun didaktik usullar shunga bo`ysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Ma`lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir dars elementlari asosiy dars turidan o`rin olishi va ayni paytda asosiy dars turning tuzilishini tashkil qilishi mumkin.

Dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o`tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o`zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi. Masalan, aralash dars turning tuzilishi:

- 1) uy vazifasini so`rash, tekshirib ko`rish;
- 2) yangi materiallarni bayon qilish;

- 3) yangi materiallarni mustahkamlash;
- 4) uy vazifalarini topshirishni o`z ichiga oladi.

Kasb – hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalash ikki holatda amalga oshishi mumkin:

Birinchisi, yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash, rag`batlantirish, munosabatlar bildirish, tasavvurini paydo qilishga doir ta`sir etish.

Ikkinchisi, talaba–yoshlarda ma`lum xulq me`yorlarini paydo qilishga yo`naltirilgan ta`sir.

Bizningcha, talabalarni mafkuraviy tarbiyalashda har ikki holatni uyg`unlikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Kasb–hunar talabalari ongida istiqlool, mas`uliyat, fidoyilik, burchga sadoqat tushunchalarini qaror toptirishda o`rta maxsus o`quv yurtlarida o`qitiladigan “O`zbekiston tarixi”, “O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”, “Huquqshunoslik”, “Milliy istiqlool g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanlari muhim o`rin tutadi. Bu esa ushbu fanlar mazmunida aks etgan talabalarda o`zligini anglash, milliy g`urur, Vatanparvarlik, insonparvarlik, o`z Vatanida o`zini erkin his etish, milliy qadriyatlar, davlatchilikni tiklash, bu yo`lda mustaqil, ijodiy faoliyat yuritish, qonunlarga hurmat, burch va mas`uliyat hissini tarbiyalashga xizmat qila oladigan mavzular yordamida amalga oshiriladi.

Tajriba–sinov ishlari jarayonida tashkil etilgan darslardan namuna keltiramiz. Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashda yetakchilik qiluvchi “Milliy istiqlool g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanlarini o`qitishda imkoniyat katta.

Masalan, “Ma`naviyat–bashariyat taraqqiyoti mahsuli. Ma`naviy meros, qadriyatlar, ularning shakllari va o`zaro munosabati” mavzusini keltiramiz.

Mashg`ulotning umumiy maqsadi: Ma`naviyat, ma`naviy meros, qadriyat, ma`naviy madaniyat tushunchalarini shakllantirish orqali talabalarda o`zligini anglash, milliy – ma`naviy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalashdan iborat edi.

Xususiyl maqsadlar esa, talabaning o`quv–bilish, faoliyat, kuzatish, o`lchash mumkin bo`lgan harakatlari orqali qo`yiladi:

- ma'naviyat, ma'naviy meros, ma'naviy madaniyatni qadrlash, milliy qadriyat tushunchalarini sharhlay olish;
- milliy istiqlolning ma'naviyat, milliy qadriyatlarning ta'sirini anglash;
- islomgacha bo'lgan milliy ma'naviyatimiz taraqqiyot bosqichlarini bilish;
- milliy qadriyatlarning milliy o'zlikni anglash va mustaqillikni tiklashdagi o'rni ochib bera olish;
- “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” tamoyilining mohiyatini konkret misollar yordamida yoritib berish;
- ma'naviy madaniyat, madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi hamda ma'naviy madaniyatni shakllanishiga ta'sir etuvchi manbalarni misollar keltirish yo'li bilan bayon eta olish;
- mustaqillik yillarida madaniy meros va qadriyatlarni tiklash borasida amalga oshirilgan ishlarni bilib olish;
- ma'naviyatning tarkibiy qismlarini bilish, mavzuni o'rganishda ma'ruza, suhbat, guruhlar tashkil etish, aqliy hujum, tushuntirish, savol – javob kabi metodlardan foydalanish mumkin.

Darsning boshlanishida talabalar avvalgi “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fanidan o'tilgan mavzularni esga oladi. Talabalarning “Ma'naviyat”, “Ma'naviy meros” haqidagi tushunchalarni aniqlash maqsadida: “Aqliy hujum” metodi yordamida “Ma'naviyat”, “Ma'naviy meros”, “Qadriyat” tushunchalari nima, ular qanday ma'noni anglatadi? Savoli bilan talabalarga murojaat etish mumkin.

Berilgan savol bo'yicha talabalarning har biri o'z fikrini qisqa, tushunarli tarzda ifoda qilishi kerak edi. Mazkur savollarga talabalar quyidagicha javob berdilar:

I. “Ma'naviyat”-tushunchasi nimani anglatadi?

- ma'naviyat – insonning axloq – odobi, madaniyati, bilim darajasi;
- ma'naviyat – kishining har tomonlama komilligini ko'rsatuvchi belgi;
- ma'naviyat – bu madaniyat;
- ma'naviyat – insonning barcha ijobiy xislatlari va fazilatlarini;

- ma`naviyat – kishining ichki go`zalligi, aqliy qobiliyati;
- ma`naviyat – bu xalqning bir necha yillar davomida yaratgan milliy merosi;
- ma`naviyat – jamiyatni rivojlantiruvchi kuch;
- ma`naviyat – inson go`zalligini anglatuvchi tushuncha;
- ma`naviyat – shaxsning jamiyat rivojiga ijobiy ta`sir etadigan barcha harakatlari;
- ma`naviyat – kishilarning har tomonlama bilimdonligini anglaydi.

II. “Ma`naviy meros” tushunchasining mohiyati nimalardan iborat?

- ajdodlar tomonidan yaratilgan barcha qadriyatlar;
- har bir millatning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan boyliklari;
- ma`naviy meros – bu milliy qadriyatlar;
- o`tmish davridan qolgan moddiy va ma`naviy madaniyat boyliklari;
- ma`naviy meros – tarixiy boylik va hokazo.

III. “Qadriyat” tushunchasining ma`nosini tushuntiring.

- ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy–manaviy meros;
- milliy, ma`naviy merosning asrab–avaylanishi;
- yaratilgan moddiy va ma`naviy yodgorliklar;
- kishilar tomonidan e`zozlanadigan madaniy meros;
- millatni millat sifatida tanituvchi moddiy va ma`naviy boyliklar va hokazo.

O`qituvchi talabalarning yuqorida bergan javoblarini umumlashtirib, “Ma`naviyat”, “Ma`naviy meros”, “Qadriyat” tushunchalariga ta`rif berdi.

Demak, “ma`naviyat” – kishilarning egallagan bilimi, amaliy ko`nikma va malakalari, axloq – odobi hamda jamiyat taraqqiyotiga ta`sir etadigan barcha ijobiy fazilatlari.

“Ma`naviy meros” esa ajdodlar tomonidan yaratilib, bugungi kungacha yetib kelgan moddiy va ma`naviy meros.

“Qadriyat” tushunchasi–insoniyatning kundalik hayotida turmushning ajralmas bo`lagi bo`lgan an`analari, urf – odatlari va marosimlarining e`zozlanishi va jamiyatning tarixiy taraqqiyotida doimiy an`anasiga aylanishi.

So`ngra o`qituvchi talabalarni 3 guruhga ajratib, milliy qadriyatlarimizni tiklashda qanday imkoniyatlar yaratilayotganligini yoritib berishni topshirdi. Har bir guruh kamida bittadan fikr bildirishi zarur edi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar sinf taxtasiga yozib borildi.

Milliy istiqlol g`oyasini ma`naviy, milliy qadriyatlarni tiklashdagi o`rni va roli haqida talabalar shunday fikrlarni bildirdilar:

- xalq o`z madaniy merosini to`liq o`rganish imkoniyatlariga ega bo`ldi;
- ma`naviy merosni o`rganish va tiklash yo`lida muhim amaliy ishlar qilindi;
- tariximizni tiklash imkoniyati paydo bo`ldi;
- ma`naviy merosimizning buyuk namoyandalarining nomlari tiklandi.

O`qituvchi: O`zbekistonning mustaqillikka erishishi va ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot jamiyatning bosh maqsadi deb belgilanishi, xalqning milliy istiqlol g`oyasi atrofida birlashishiga va ma`naviy qadriyatlarni tiklashga katta imkoniyatlarni yaratdi. So`ngra har bir guruhga o`z fikrini yozma bayom etish topshirildi va o`z fikrida uzviylik bo`lishini ta`kidladi.

Har bir guruh o`zlariga topshirilgan vazifani yakunlagach, ish natijalarini auditoriya muhokamasiga havola etildi. O`qituvchi bunda talabalar diqqatini eng yaxshi, mantiqan izchil, teran fikrlarga qaratdi. Guruhlar o`z fikrlarini quyidagi tarzda yoritdilar:

Birinchi guruh: O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng, sho`rolar davrida tahqirlangan ma`naviy merosimizni, tariximizni xolisona o`rganishga katta e`tibor qaratildi. Mustaqillikka erishish natijasida o`z dinimiz, tilimiz, unutilgan an`analarimiz, bayramlarimizni nishonlash imkoniyatiga ega bo`ldik.

Ikkinchi guruh: Mustaqillik yillarida ma`naviy–ma`rifiy sohani isloh qilish va rivojlantirish davlatning bosh ustuvor siyosati darajasiga ko`tarildi. Bunda Respublika “Ma`naviyat va ma`rifat” jamoatchilik markazining tashkil etilishi barcha sohalarda ma`naviy–ma`rifiy ishlarni keng ko`lamda rivojlantirishga imkoniyat yaratdi.

- ma`naviyatni targ`ib etuvchi turli sohadagi ilm dargihlarini tashkil etilganligi;

- “Temuriylar tarixi” muzeyining qurilishi;
- “Xotira va qadrlash kuni” ning nishonlanishi;
- Mustaqillik uchun kurashgan ma`naviyat va ma`rifat darg`alari nomlarining tiklanishi hamda taqdirlanishi.

Uchinchi guruh: Ahmad al-Farg`oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi buyuk allomalr merosini, Amir Temur kabi davlat arbobi, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Muqanna kabi mustaqillik uchun kurashgan yalovbardoarlar, mustaqillik sharoitida millat taraqqiyoti va istiqboli uchun kurahsgan jadidchilik harakati namoyandalari Behbudiy, Fitrat, Cho`lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy kabi ma`rifatparvarlar ijodini o`rganishga keng yo`l ochildi. Shuningdek, Amir Temur, Al-Buxoriy nomlarining abadiylashtirilishi Zardusht tomonidan yaratilgan Avesto kitobining o`rganilishi va xalqaro darajada bayram qilib nishonlanishi istiqbol mafkurasining yaratilishi va o`zligimizni anglash, istiqbolni mustahkamlash yo`lidagi buyuk harakatlardan hisoblanadi.

O`qituvchi guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib mashg`ulotning asosiy qismiga o`tadi.

Bu bosqichda o`qituvchi yangi dars mazmunini tushuntirar ekan, mavzuni bayon etishda barcha fikrlarni bir-biri bilan uzviy bog`lashi lozim edi. Bu talabalarda o`tilayotgan mavzu haqida butun yaxlit tushuncha hosil qilishga, voqea – hodisalar o`rtasidagi uzviy bog`lanishlarni anglashiga ko`maklashadi.

O`qituvchi talabalarga ma`ruzani bayon qilish jarayonida muhim tushunchalarni belgilab borishni topshiradi.

Yangi mavzuni bayon etishda o`qituvchi talabalarga mavzudagi eng muhim tushunchalar, milliy istiqbol g`oyasi, mustaqillik, ma`naviy meros, tariximiz, dinimiz va tilimizni o`zligimizni anglashdagi ahamiyati, ma`naviyatning taraqqiyot bosqichlari va rivojlanishi, bugungi kunda ma`naviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, ma`naviy qadriyat haqida ma`lumot beradi. Mashg`ulotning fikrlash bosqichida talabalarga o`zlari belgilab olgan muammo xususida o`zaro partadoshlari

bilan muhokama etadilar. So`ngra guruhlar bilan ishlash uchun quyidagi topshiriqlar beriladi.

- Ma`naviyatning taraqqiyot bosqichlarini tarixiy dalillar yordamida bayon eting.
- “Ma`naviy madaniyat” tushunchasini yoritib.
- “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” tamoyilining mohiyatini ochib bering.
- O`zlikni anglash va mustaqillikni mustahkamlashda milliy qadriyatlarning o`rnini yoritib bering.

Talabalarga yuqoridagi masalalarni hal etishda quyidagi qo`shimcha adabiyotlardan foydalanish tavsiya etildi:

1. I.A.Karimovning “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asari.
2. I.A.Karimovning “Yuksak ma`naviyat–jamiyat taraqqiyotining asosi” asari.
3. I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” asari.
4. M.Murodovning “O`zbek qadriyatlari” asari.
5. O.Musurmonovning “Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” asari.

Guruhlar taqdimotidan so`ng, o`qituvchi talabalar tomonidan bildirilgan to`liq va sarmazmun fikrlarga talabalar diqqatini qaratdi va o`z munosabatini bildirdi va darsga xulosa yasaldi.

Talabalar bilimini baholashda testlar, savol va topshiriqlardan foydalanish, so`rovnoma o`tkazish, mavzu yuzasidan referat yozish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Talabalar bilimini baholashda quyidagi test savollaridan foydalanildi:

I.Ma`naviyatning taraqqiyot bosqichlarini misollar yordamida yozing.

- a) Qadimgi davr ma`naviyati
- b) O`rta asrlar ma`naviyati
- c) Yangi davr ma`naviyati

II.Ma`naviy meros tushunchasi qaysi javobda to`g`ri ifodalangan?

- a) Ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma`naviy yodgorliklar
- b) O`tmish davrdan insoniyatga qolgan moddiy va ma`naviy madaniyat boyliklari

c) Bashariyat rivojlanishining uzoq davrlar mobaynida tarkib topgan inson aql –zakovati ifodasi

d) Barcha javoblar to`g`ri

III.Prezident I.A.Karimovning “Tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an`analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma`naviy yuksalishidagi o`rni va ahamiyati qayta tillandi” degan fikr qaysi javobda ifodalangan?

a) Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi nutqida

b) “Tarixiy xotirasizkelajak yo`q” asarida

c) Oliy Majlisning IX sessiyasidagi nutqida

d) “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida

IV.Ma`naviy madaniyatni shakllantirish manbalarini belgilang.

a) Adabiyot, fan

b) San`at, ma`rifat

c) Ijodkorlik

d) Ma`naviy ruhiy qadriyatlar

e) Tarix

f) Barchasi to`g`ri

I. Mustaqillikni mustahkamlash uchun nima qilish kerak, deb o`ylaysiz?
Sizning tavsiyalariniz?

II. Vatanparvarlik ma`naviyatlilik belgisi hisoblanadimi?

- ha

- yo`q

Mazkur mashg`ulotda o`qituvchi tayyorgarlik bosqichida yangi mavzuni o`tish uchun zamin hozirladi. Bunda “Aqliy hujum”, guruhlarda ishlash orqali talabalarning mavzuga doir tushunchalarni umumlashtirdi. Mazkur metodlarni izchil qo`llash natijasida talabalarning o`tilgan avvalgi mavzular bo`yicha bilimlari baholanib, bir tizimga solindi hamda o`tilgan mavzularning yangi mavzu bilan mantiqiy bog`lashga erishildi. Bunda talabalar o`qituvchi bergan g`oyalar bo`yicha emas, o`zlari ilgari surgan fikrlar asosida ishlab, mustaqil, erkin faoliyat yuritishga harakat qildilar.

O`qituvchi talabalarni yangi mavzuni o`zlashtirishga tayyorlashda ularning fikrini mavzu bo`yicha bir joyga to`plashga erishadi. Mazmun bosqichida talabalar yangi mavzu bo`yicha ma`ruzani eshitish jarayonida o`zlari uchun yangi ma`lumotlarni yozib bordilar.

Fikrlash bosqichida talabalar o`zlariga belgilab olgan vazifalar bo`yicha, so`ngra o`qituvchi bergan topshiriq bo`yicha guruhlarda ishlaydi. So`ngra o`qituvchi talabalar bilimini baholashga o`tadi. Shu tarzda o`qituvchi dars jarayonining barcha bosqichida o`quchilar faoliyatiga tayanib ishlash, ularning natijalarini yuzaga chiqarishga harakat qildi.

Mazkur mashg`ulotda talabalar milliy istiqlolning mohiyati, uning milliy–ma`naviy qadriyatlarini, xalqimizning urf–odatlarini tiklashdagi o`rni, taraqqiyoti, mustaqillikni mustahkamlashdagi o`rni bilan tanishdi.

Kollejlarda ayniqsa “Ma`naviyat asoslari” fanini o`tishda “Mustaqillikni mustahkamlash har bir fuqaroning burchi” mavzusi muammo nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Mazkur mavzu davra suhbat shaklida tashkil etildi. Unda o`qituvchining “Kirish” so`zidan so`ng talabalar oldindan tayyorgarlik ko`rib yurgan quyidagi masalalar bo`yicha fikr almashdilar:

- mustaqillik uchun kurash azaliy maqsad ekanligini misollar yordamida asoslash;
- bosqinchilarning bosib olingan mamlakat xalqlarini asoratga solishda qo`llagan usullari;
- mustamlakachilik mafkurasining asosiy maqsadi nimalardan iborat edi?
- sho`ro hukumatining totalitar siyosati nimalarda namoyon bo`ladi?
- “Xotira va qadrlash kuni”, “Shahidlar xotirasi” kunlarida kimlarni yod etiladi?
- mustaqillikning e`lon qilinishi bilan mamlakatimizda qanday o`zgarishlar yuz berdi?
- milliy istiqlolni mustahkamlashda asosiy burch va vazifalarimiz nimalardan iborat?

Davra suhbatlari talabalarning faqat bilgan–eshitganlari, o`qituvchining so`zlarini takrorlash bilan chegaralanmadi. Talabalar tayyorgarlik jarayonida she`riy lavhalar, musiqali parchalar, ko`rgazmali materiallar asosida teatrlashtirilgan sahna tarzida o`tdi. Abdulla Oripovning “O`zbekiston–vatanim manim” she`ri va mustaqillik haqidagi mushoira bilan boshlagan davra suhbatlari talabalarning vatanparvarlik, milliy g`urur tuyg`ulari bilan sug`orilgan mustaqillikni asrash, uni mustahkamlash, rivojlantirish haqidagi muqaddas burch haqidagi qasamyodiga aylanib ketdi.

Talabalar mustaqillik uchun kurashganlar timsolida istiqlolni anglab yetganliklarini namoyon etdilar. Bunda biz test savollariga berilgan javoblarda ham to`liq qanoat hosil qildik.

Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalash o`rta maxsus o`quv yurtlari o`quv rejasiga kiritilgan “Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani milliy istiqlol g`oyasining asosiy tamoyillarini tushunib yetish, istiqloлга erishish ma`naviy qadriyatlarimizni, o`z tariximiz, tilimiz, dinimizni tiklash shu asosda milliy g`urur, o`zlikni anglash, milliy mustaqillikni mustahkamlash yo`lida ongli faoliyatni tashkil etishda katta imkoniyatlarni beradi. “Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining vazifasi ta`lim oluvchilarda jamiyat taraqqiyotining asosiy g`oyasi xususidagi bilimlar haqida muayyan tasavvurni hosil qilish, ma`naviy–axloqiy sifatlarni shakllantirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini ta`minlashga munosib hissa qo`shadigan milliy istiqlol g`oyalari sodiq komil insonni shakllantirishdan iborat.

Talabalarga milliy istiqlol g`oyasini tushuntirishda “Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanidagi “Milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va mazmuni” mavzusini bayon etishi mumkin.

“Milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va mazmuni” mavzusini o`rganishda asosiy maqsad talabalar ongiga mustaqillik, uning qadr–qimmatini, milliy istiqlol g`oyasi jamiyatni birlashtiruvchi va yagona mafkuraviy maqsad ostida jipslashtiruvchi kuchli omil ekanligi haqida yaxlit tasavvur hosil qilish. Xususiylar fikrlar esa talabalarni keyingi faoliyatlari orqali belgilanadi:

- milliy istiqlol g`oyasi tushunchasini sharhlay olish;
- milliy istiqlol g`oyasining tarixiy, falsafiy negizlarini bilish;
- milliy istiqlol mafkurasini tushunchasini sharhlay olish;
- milliy istiqlol g`oyasining asosiy tamoyillarini bilish;
- milliy istiqlol mafkurasining ma`no–mazmunini belgilaydigan asoslaridan biri bu xalqning qadimiy boy tarixi ekanligini misollar yordamida ayta olish;
- milliy istiqlol mafkurasini o`zligini anglashda kuchli g`oyaviy vosita ekanligini tushuntira olish.

Mavzuni o`rganishda ma`ruza “Aqliy hujum” metodi, guruhlar tashkil etish, “Klaster” metodi, savol – javob, suhbat metodlari asosida olib boriladi.

Mashg`ulotni tayyorgarlik bosqichida o`qituvchi ma`ruzani boshlashdan oldin “Aqliy hujum” metodidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat etadi:

- 1.G`oya deganda nimani tushunasiz?
- 2.G`oya bilan milliy g`oyaning farqi nimada?
- 3.Milliy mafkura deganda nimani tushunasiz?

Berilgan savollar yuzasidan talabalarning har biri o`z fikrini bildirishi kerak edi. Ular tomonidan berilgan barcha fikrlar doskaga yoki qog`ozga alohida yozib borildi. Masalan, “Goya deganda nimani tushunasiz?” savoliga quyidagicha javoblar bo`ldi:

- G`oya – bu fikr.
- G`oya – bu tafakkur mahsuli.
- Har qanday ijobiy xarakterga ega fikr g`oya bo`ladi.
- G`oya ko`pchilik manfaatini aks ettirishi lozim.
- G`oya faqat xalq manfaatini ko`zlashi kerak. Ijobiy xarakterga ega bo`lmagan fikr g`oya bo`lmaydi.

O`qituvchi har bir savol yuzasidan berilgan javoblarni umumlashtirib, tahlil etib, g`oyaga umumiy ta`rif berdi. So`ng mashg`ulotning mazmun bosqichiga o`tdi. Mashg`ulot mazmuni bosqichida o`qituvchi mavzu maqsadida belgilangan har bir

masala yuzasidan ma`ruza qiladi. Ma`ruza davomida talabalarga ma`ruzadagi eng muhim masalalarni belgilab borishlari ta`kidlanadi. O`qituvchi ma`ruzasini tugatib, darsning fikrlash bosqichiga o`tdi. Fikrash bosqichi talabalarni 4 guruhga jaratadi va ularga:

- 1) milliy istiqlol g`oyasining tarixiy ildizlarini ochib berish;
- 2) milliy istiqlol g`oyasini falsafiy negizlarini yoritish;
- 3) milliy istiqlol g`oyasining asosiy tamoyillarini mohiyatini ochish;
- 4) milliy istiqlol g`oyasining o`zlikni anglashda qudratli kuch ekanligini misollar yordamida ifodalash vazifalarini yuklaydi.

Guruhlarda ishlash va ish natijalarini tahlil etishda ularga har bir guruh sardori o`z muammolari yechimini bayon etdi. Guruh a`zolaridan qolganlari uning fikrini to`ldirib bordi. Guruhlar o`z muammolari yuzasidan bildirilgan fikrlarni va xulosalarni bayon etganlaridan so`ng, o`qituvchi talabalarda mg yaxshi javob bergan guruhni aniqlashlarini so`raydi. Bu esa o`quvchlarning mantiqiy tafakkur doirasini kengaytiradi va o`qituvchi talabalar bilimini mustahkamlash bosqichiga o`tdi.

Mavzuni mustahkamlash bosqichida o`qituvchi guruhlarini qayta shakllantirib, ularga quyidagi mazmunda klasterlar tuzish topshirildi.


- 1 – guruh uchun: Milliy istiqlol g`oyasining tarixiy ildizlari.
- 2 – guruh uchun: Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari.
- 3 – guruh uchun: Milliy istiqlol mafkurasining milliy xususiyatlari.

Biz talabalar tuzgan klasterlardan ba`zilarini namuna sifatida keltiramiz:

1 – guruh klasteri

6-chizma

Milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlari



			Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari
		Qonun ustuvorligi	
		Insonparvarlik	
		Madaniy qadriyat ustuvorligi	
		Hududiy yaxlitlikni ta'minlash	
		Erkinlashtirish	
		Vijdon erkinligi	
		Davlat bosh islohotchi ekanligi	
		Demokratik tamoyillar	
		Ijtimoiy himoya	
		Xalqaro huquq qoidalariga rioya etish	
		Ijtimoiy barqarorlik	
		Umuminsoniy qadriyatlar	

3 – guruh klasteri

8-chizma

Milliy istiqlol mafkurasining xususiyatlari

Jamoa bo`lib yashash

Marosimlar

Ota – onaga hurmat

Mehmondo`stlik

To`y - tomosha

Qarindosh – urug`chilik

Sabr – bardosh

El – yurtga sadoqat

Kichikka izzat

Mehnatsevarlik

Kattalarga hurmat

Vatanparvarlik

Hashar

Mehr – oqibat

Mahallachilik

2.2. Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar asosida kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning omillari

Kasb–hunar kolleji talabarlari ongiga milliy g'oyani singdirish jamiyat hayotidagi eng dolzarb vazifalardan biridir. U murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. O'qituvchining darslar jarayonida talabaga yetkazadigan nazariy ma'lumotlaridan tashqari sinfdan tashqari mashg'ulotlarda munozaralar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, tanlovlar o'tkazish, sayru–sayohatlarga olib borish darslarning uzviy davomi bo'lib, tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, mustaqil ish sifatida berilgan topshiriqlar talabani o'ylashga, erkin fikrlashga yo'llaydi. Masalan, suhbatlarda “Milliy g'oya nima?”, “Mafkura nima?” kabi dastlabki mashg'ulotlardan so'ng berilgan “g'oyani uyushtirish va safarbar etish, harakat manbai hamda haqiqat mezoni bo'lish xususiyatlari nimalardan iborat?”, “Asl va soxta g'oyalarning farqini nimalarda ko'rasiz?”, “Mafkura bilan g'oya o'rtasidagi asosiy farq nimada?”, “Aqidaparastlik nima uchun xavfli?”, “E'tiqod va dunyoqarash deganda nimani tushunasiz?” degan savollarga javob berishda talaba o'ylaydi, fikr qiladi va bunda albatta mavzu matniga tayanib, milliy istiqlol g'oyalariga ham to'xtaydi va undan o'rganib javob beradi.

Beriladigan topshiriqlar talabalarni ma'lum mavzuga asoslanib bilim olishga hamda olgan bilimni amaliyotga joriy qilishga yo'llaydi. Mamlakatimizning so'lim go'shalariga, qo'riqxonaga, hayvonot va botanika bog'iga ekskursiyalar uyushtirib “Inson va tabiat” mavzusida insho yozish, “Insonparvarlik” mavzusini o'rganishda esa guruhlariga bo'linib, mehribonlik va qariyalar uylaridagi qariyalardan, bemorlar holidan xabar olish, shulardan kelib chiqib “Mehr oqibatning tub mohiyatini nimada deb bilasiz?” mavzusida, “Xulq odob–ma'naviyat negizi” mavzusini o'rganishda “Nega yaxshi so'z–jon ozig'i deyiladi?” xalq hikmatidan kelib chiqib munozaralar uyushtirish, “Qadriyatlar deganda umuminsoniylik va milliylikni qanday tushunasiz?” mavzusida bahs – munozara mashg'ulotlarini tashkil etilishi mavzularni sinfdan tashqari mashg'ulotlar bilan uzviy aloqada o'rganishga yordam berdi.

Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning bunday pedagogik omil va vositalari, sinf–dars tizimi, oila, kollej, mahalla hamkorligi, ommaviy axborot vositalari, matbuot organlari, adabiyot va san`at, tarbiyaviy tadbirlar, muzeylar, fan va ilmiy muassasalari bilan uyg`un holda hamkorlik o`rnatilishiga va o`zaro hurmat hissini shakllanishiga samarali ta`sir ko`rsatadi.

9-chizma

Kasb–hunar kolleji talabalarini mafkuraviy tarbiyalashning
pedagogik omillari va vositalari



Yurtboshimiz asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasini o'rganish va ularni tarbiyaviy tadbirlarga tatbiq etish masalalari yechimi o'z ifodasini topgan.

"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanida "Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi" mavzusini o'rganish kuchli tafakkurni talab etadi. Markaziy Osiyoda mafkuraviy jarayonlar haqida ma'lumot berilgandan so'ng "O'zbekiston o'z mintaqasida tinchlikni mustahkamlash uchun qanday sa'y-harakatlar qilmoqda?", "Milliy istiqlol g'oyasining asosiy g'oyalari nimga xizmat qiladi?" kabi savollari asosida "Vatan ravnaqi", "Yurt tinchligi", "Xalq farovonligi" tushunchalarining mohiyati va mazmuni tahlil etiladi.

Mashg'ulotlardan so'ng "Mustaqillik bergan oily ne'mat", "Ajdoqlar merosi oliy qadriyat", "Muloqot madaniyati", "Bo'sh vaqtni tashkil etish", "Shaxsiy gigiyena talablari", "Kiyinish madaniyati" mavzularida muloqot, "Bo'sh vaqtni qanday o'tkazish lozim?" mavzusidagi suhbat, o'spirin yoshida yuz beradigan fiziologik o'zgarishlar va o'spirin kun tartibi haqida fikr almashishlar, "Yoshlar va kiyinish madaniyati" mavzusini o'rganishda "Tejamkorlik" mavzusida munozara o'tkazish va talabalarning ijodlari namunalaridan ko'rgazma tashkil etish talaba-yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda "Ichkilikbozlik, giyohvandlik va kashandalik. Ularning zararli oqibatlar" mavzusidagi o'tkazilgan suhbat muhim o'rin tutadi.

Suhbatda mutaxassislar (shifokor, psixolog, huquqshunos) bilan jonli muloqot uyushtirish, donishmandlarning "Ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandalik va ularning zararli oqibatlar", "Sog'lom turmush tarzi", "Sog'lom ona-sog'lom bola" haqidagi fikrlarni muhokama etish, mavzuga oid videofilmlar, vaqtli matbuot materiallari va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanish yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish muhim rol o'ynaydi.

Bu borada "Xotira va qadrlash kuni", "Shahidlar xotirasi"ga bag'ishlangan, "Unutmaymiz Sizni, mustaqillik fidoiylari" mavzusidagi tadbirlar katta taassurot

qoldiradi. Bu tadbir ikki bosqichda nishonlanadi. Birinchi bosqich “9–may–Xotira va Qadrlash kuni”ga bag`ishlansa, ikkinchisi “Shahidlar xotirasi” ga bag`ishlanadi.

“9–may–Xotira va Qadrlash kuni” boshqa bayramlardan shunisi bilan farqlanadiki, bu kun o`z oilasi va kelajagi uchun jon bergan insonlar xotirasi qarshisida bosh egish, ularning ezgu ishlarini yodga olish, o`tmish saboqlaridan xulosa chiqarish tarbiyaviy ahamiyatni oshirishga qaratiladi. Avval guruhlarda va xotira maydonida “9–may–Xotira va Qadrlash–muqaddas tuyg`u”, “Xotira maydoni–muqaddas qadamjo”, “O`tganlarni yod etish buyuk ma`naviy tuyg`u” kabi suhbatlar o`tkaziladi. Bu suhbatlarda 1941-1945 yillardagi urushda shahid ketganlar orasida balkim, har bir o`g`il–qizning bobolari va boshqa qarindoshlari ham borligini xotira varaqlaridan aniqlash mumkinligi uqtiriladi. Shuningdek, bu urushda qatnashib, hozirgi vaqtda juda kam qolgan bunday keksalar holidan xabar olish, mehr–muruvvat ko`rsatish har bir talabaning insoniy burchi ekanligi ham uqtiriladi. So`ng “Xotira va Qadrlash kuni” kollej hududida “Xotira maydoni” yoki boshqa esdalik namunalari o`rnatilgan bo`lsa, u yerga borish, sukut saqlash, ularning ruhiga “Qur`on” oyatlaridan fотиha o`qish talabalar ongiga yangi tushunchalar olib kiradi. Ikkinchi jahon urushida Moskva, Leningrad, Belorussiya, Kerch, Ukraina, Polsha va boshqa olis o`lkalarda halok bo`lganlar orasida ularning hamshahar, hammahallalari, qarindoshlari han bo`lganligini aniqlash, ro`yxat tuzib chiqish, kollejda stend tashkil etish, ularning ism– shariflarini xotira maydonidagi xotira kitobidan izlash talabalarda insonparvarlik o`zaro mehr–oqibat tuyg`ularini shakllantirish orqali milliy istiqlol g`oyasi ruhida tarbiyalanadi.

Bundan tashqari har bir avlodning o`z kelib chiqish shajarasi bor. Shunga ko`ra “Sen o`z shajarangni bilasanmi?” mavzusidagi bahs ham qiziqarli o`tdi. Mazkur dargohda o`qiydigan talabaning har biri bir avlod sanaladi. Har bir inson o`zining yetti pushtini bilishi kerak. Bu mashg`ulotlarda ham talabalar bir tomondan o`z avlodi haqida tushunchaga ega bo`lsa, ikkinchidan marhumlar esga olinib, ularga hurmat va ehtirom bajo keltiriladi.

Bular “Xotira va Qadrlash kuni” da talaba–yoshlarga urushning yomon oqibatlari va tinchlikning sharofati haqida ma`lumot beradi. Yer kurrasidagi ko`plab

mamlakatlarning urush girdobiga tushib qolib, ular tortayotgan azob– uqubatlari Checheniston, Afgʻoniston, Iroq misolida tushuntirildi va videolavhalar namoyish etildi. AQShdagi 11–sentabr voqealari, yurtimizdagi 16–fevral voqealari yodga olinib, uning fojiali oqibatlari koʻrgazmali tarzda namoyish etildi. Umuman olganda, talabalar “Xotira va Qadrlash kuni” haqida tasavvurlarini chuqurlashtirish orqali bugungi kunda mustaqillikni saqlash va asrashning qay darajada muhimligini anglab yetdilar. Ularda eng yomon narsa–oʻzini bilib, oʻzgani unutib yashash ekanligini tushunib yetish, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk insonlar hayotidan oʻrnak olib yashashga, oʻz burchi va masʼuliyatini his etishga koʻmaklashadi.

Bundan tashqari, kasb–hunar kollejida oʻtkazilgan bir qator tadbirlar ham talabalarni mafkuraviy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega boʻldi. Bular “Ajdodlar merosi–maʼnaviyatimiz tayanchi”, “Mehnat, mehnatning tagi rohat”, “Inson mehnatining qadriga yet”, “Diniy aqidaparastlik va terrorizm va unga qarshi kurashning gʻoyaviy asoslari”, “Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, dinlararo bagʻrikenglik–bizning oliy maqsadimiz”, “Ustoz va shogird” mavzusidagi davra suhbatlari, “Doʻstlik kechasi”, “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”, “Istiqlol Sizing hayot tarzingiz, gʻururingiz, tafakkuringizda qanday oʻzgarishlar yasadi” mavzularidagi davra suhbatlari shular jumlasidandir. Masalan, “Ajdodlar merosi–maʼnaviyatimiz tayanchi” mavzusidagi tadbirni I-kurs talabalari olib bordi. Tadbirda asosan, Oʻzbekiston oʻz taraqqiyot yoʻlini tanlaganidan buyon iqtisodiy, ijtimoiy–siyosiy, maʼnaviy islohotlar sohasida olib borilayotgan ishlar, Vatanni himoya qilish, mustaqillikni asrash, milliy istiqlool gʻoyasini shakllantirishga qaratilganligi, bu esa yangi jamiyat qurishda kishilar orasida ijtimoiy –siyosiy munosabatlar, odamlar ongi va tafakkurida oʻzgarishlar boʻlayotganligiga, shaxs bilan davlat, inson bilan jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar mutlaqo yangicha mazmun kasb etayotganiga asosiy eʼtibor qaratildi. Bunda milliy istiqlool gʻoyasining asosiy tamoyillariga tayangan holda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarimiz, demokratik prinsiplar mohiyatiga, turmush tarzimiz va tafakkurlarimizga, adolatli jamiyat talablariga javob beradigan boʻlishi zarurligi alohida taʼkidlandi va talabalarga yetkazildi.

“Diniy aqidaparastlik va terrorizm va unga qarshi kurashning gʻoyaviy asoslari” mavzusidagi davra suhbatida bugungi kunda butun insoniyat hayotiga tahdid solayotgan xalqaro terrorizmga qarshi jahon hamjamiyatida boshlangan kurash tobora keskinlashib borayotgani, nihoyatda murakkab bir davrda XXI asr vabosi deb nom olgan terrorizm ofati dunyodagi barcha sof niyatli kishilar bilan bir qatorda xalqimizni ham befarq qoldirmayotganiga toʻxtab oʻtildi. Davra suhbatida talabalarga milliy istiqlol gʻoyalarini singdirish maqsadida “Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?”, “Mafkuraviy muammolar: zararli boʻshliq va gʻoyalarning jamiyatimizga taʼsiri”, “Diniy aqidaparastlik va terrorizm nima? Unga qarshi qanday kurashmoq kerak?”, “Nima uchun har birimiz ogohlikka rioya qilishimiz kerak?”, “Hushyorlikka daʼvat” kabi masalalar bahs shaklida muhokama etildi. Mazkur bahsda istiqlolni asrash, milliy mafkuraning istiqlolni asrashdagi oʻrni, talaba–yoshlarning ongida paydo boʻlgan boʻshliqni toʻldirishda nimalarga eʼtibor berish kerakligi, aqidaparastlik va terrorizmga qarshi kurashda ogohlik va hushyorlikni saqlash kabi masalalarda talabalar oʻz nuqtai–nazarlarini bayon etdilar.

Kasb–hunar kollejlariida yangicha pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni milliy istiqlol gʻoyasi ruhida tarbiyalash ishlari yoʻlga qoʻyildi. Ishda maqsadli tarbiya boʻyicha tashkil qilingan “Qizlar klubi”, “Boʻlajak oila klubi”, “Tikuvchilik”, “Pazandachilik”, “Zulfiyaxonim qizlari”, “Qizlar gulshani”, “Qizlar guldastasi”, “Nihol” toʻgaraklarining roli va oʻrni ochib berildi.

Bularning samaradorligi kasb–hunar kollejlariida barcha oʻquv–tarbiya jarayoni bitta maqsadga–talabalarni mafkuraviy tarbiyalashga, mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalashga qaratilgan.

III BOB. KASB - HUNAR KOLLEJI TALABALARINI MAFKURAVIY TARBIYALASHGA OID O`TKAZILGAN TAJRIBA – SINOV ISHLARINING NATIJALARI VA TAHLILI

3.1. Talabalarini mafkuraviy tarbiyalashga oid o`tkazilgan tajriba – sinov ishlarining natijalari

Har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish demokratik tamoyillar, shaxsning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qila olish, o'zga millat va elatlar bilan tenglikka asoslangan hamkorlikni qaror toptirish, shuningdek sog'lom raqobatga asoslangan rivojlangan bozor iqtisodi munosabatlari o'z aksini topayotgan mazkur sharoitda o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-madaniy yo'nalishlardagi davlat siyosatining tub mohiyati ana shulardan iboratdir. Qisqa muddat ichida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o'rin egallash, ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyati, g'oyaviy yetukligi, g'ayrat va shijoatiga bog'liq. Shu bois huquqiy, demokratik jamiyatni barpo etishning barcha bosqichlarida yoshlar tafakkurini shakllantirish, ular ongiga milliy mafkurani singdirish, mafkuraviy immunitetni qaror toptirish kabi vazifalarning ijobiy yechimini ta'minlashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni beqiyosdir.

Ko'p ming sonli yoshlarning xohish-istak, intilish hamda manfaatlarini birlashtirish ayni vaqtda yosh avlod ongida milliy mafkurani shakllantirish, ularning dunyoqarashini boyitish, muayyan faoliyatni tashkil etish, ko'nikma va malakalarini hosil qilish, jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratib, salbiy holatlar, shuningdek, diniy aqidaparastlik, terrorizm, kashandalik, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, noqonuniy hatti-harakatlar, ahloqsiz turmush kechirish natijasida yuqumli kasalliklar (SPID, tanosil kasalligi va hokazolar) yoshlar orasida keng yoyilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Biroq shuni tan olish kerakki, jamiyat hayotida vujudga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar to'g'ridan-to'g'ri ishonuvchan, soddadil va hayotiy tajribaga ega bo'lmagan yoshlar ongi va qalbini zabt etishga qaratilmoqda. Bunday noxush holatlarning oldini olish, yoshlar ongida milliy mafkurani shakllantirishning samaradorligini oshirish muammosini tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatni tashkil etishning asosiy shartlaridan biri — bu ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi hisoblanadi. Dissertasiya ishining birinchi bobida bayon etilgan nazariy fikrlarning amaliyot bilan mushtarakligi, mavjud ahvolni tahlil eta olish imkoniyati, ayni vaqtda muayyan kamchiliklarni bartaraf etish yoki yutuqlarni boyitish muammo doirasida tashkil etilayotgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarining mohiyati bilan belgilanadi. Shu bois tadqiqot jarayonida ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarini tizimli, samarali tashkil etish maqsadida maxsus ishchi dasturni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratdik. Mazkur dasturda yoshlar ongida milliy mafkurani shakllantirishning samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining yaxlit tizimi o'z ifodasini topdi, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish metodikasi yoritildi.

Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik asoslari muammosini tadqiq etishdan ko'zlangan maqsad, tadqiqot obyekti, predmeti, vazifalari, shuningdek, ilgari surilgan ilmiy farazlardan kelib chiqqan holda, tajriba-sinov ishlarining maqsadi — talabalar ongiga milliy mafkurani singdirish, ushbu jarayon samaradorligini oshirishning amaliy jihatlarini puxta o'rganish, eng maqbul shakl, metod va vositalarni belgilashdan iborat bo'ldi.

Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi vazifalar hal etildi:

1. Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirishning mavjud holatini o'rganish maqsadida tadqiqot obyekti hamda tajriba-sinov jarayonining ishtirokchilari bo'lgan respondentlar sonini aniqlash.

2. Respondentlarni tajriba-sinov ishlari mohiyatidan xabardor etish.

3. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonining bosqichlari hamda har bir bosqichda amalga oshiriladigan xususiy vazifalarni belgilash.

4. Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirishning maqbul shakl, metod va vositalarini aniqlash

5. Ishlab chiqilgan metodikani dastlabki ta'kidlovchi tajriba asosida sinovdan o'tkazish hamda mazkur tajriba yakunlarini tahlil etish.

6. Ishlab chiqilgan metodika samaradorligini aniqlashga erishish. Shu maqsadda tadqiqot obyekti hisoblangan tajriba-sinov maydoni - Samarqand shahar 1-son pedagogika kollejida o'tkazilgan yig'inlarda taqdim etilayotgan metodikadan foydalanish hamda uning samaradorligini aniqlash, zarur holatlarda uning mazmuniga o'zgartirishlar kiritish.

7. Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirishga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi va nazorat qiluvchi tajribalarni uzluksiz, tizimli hamda izchil tarzda tashkil etish, ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi shart-sharoitlarni yaratish.

8. Tajriba-sinov ishlarining umumiy natijalarini umumlashtiruvchi, ta'kidlovchi, o'zgartiruvchi, shuningdek nazorat qiluvchi tajriba ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash, qiyoslash, ularning samaradorligi xususida yakuniy xulosa chiqarish va umumiy natijani matematik-statistik metod yordamida qayta ishlash.

Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirish samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshirildi:

1. Tajriba-sinov ishlarining aniq maqsadga yo'naltirilganligi.
2. Tajriba-sinov ishlarining izchil, tizimli va uzviyligi.
3. Muammoning nazariy asoslari bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.
4. Respondentlarning o'z imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqara olishlari.
5. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan aniq maqsadning natijalanganligi.

Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligiga ko'ra ta'minlanadi:

1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni puxta ishlab chiqilganligi.
2. Mazkur mazmunning, tajriba-sinov ishlari samarasini ta'minlovchi shakl, metod va vositalar majmuidan iborat ekanligi.
3. Tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari — respondentlar sonini taqqoslash, qiyoslash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkich bo'la olishi.
4. Tajriba-sinov ishlari mazmunidan respondentlarning to'laqonli xabardor etilganligi.
5. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda tadqiqotchi yoki ushbu faoliyatni tashkil qilishga mas'ul bo'lgan o'qituvchi (pedagog) bilan respondentlar o'rtasida samimiy muloqot hamda o'zaro hamkorlikning o'rnatilganligi.
6. Tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida respondentlar bilan muloqot qila olish imkoniyatiga egalik.
7. Tajriba-sinov ishlari natijalarining doimiy ravishda umumlashtirib tahlil etib borilishi.
8. Umumiy natijalarni qayta tahlil etish imkoniyatini beruvchi matematik-statistik metodlarning aniqlanganligi.
9. Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari quyidagi metodlar yordamida amalga oshirildi:
 1. Kuzatish metodi. Ma'lumki, ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish o'rganilayotgan pedagogik muammoning mohiyati, nazariy hamda amaliy jihatlarini to'g'ri yoritish, tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, shuningdek, ilmiy farazini to'g'ri belgilash imkoniyatini berdi.

Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda ochiq turdagi pedagogik kuzatuvni tashkil etdik.

Ochiq kuzatuvga asoslangan faoliyat jarayonida muayyan savollarni o'z ichiga olgan anketa so'rovnomalarini tarqatish, yakka va ommaviy tarzda tashkil etilgan suhbatlar, ma'lum tadbirlarni uyushtirish chog'ida respondentlar tomonidan milliy mafkurani shakllanganlik darajalari o'rganildi, bu borada aniq ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'ldik.

1.Kuzatish metodi. Ma'lumki, ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish o'rganilayotgan pedagogik muammoning mohiyati, nazariy hamda amaliy jihatlarini to'g'ri yoritish, tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, shuningdek, ilmiy farazini to'g'ri belgilash imkoniyatini berdi.

Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirish samaradorligini oshirishda yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda ochiq turdagi pedagogik kuzatuvni tashkil etdik.

Ochiq kuzatuvga asoslangan faoliyat jarayonida muayyan savollarni o'z ichiga olgan anketa so'rovnomalarini tarqatish, yakka va ommaviy tarzda tashkil etilgan suhbatlar, ma'lum tadbirlarni uyushtirish chog'ida respondentlar tomonidan milliy mafkurani shakllanganlik darajalari o'rganildi, bu borada aniq ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'ldik.

2. Ijtimoiy-siyosiy, pedagogik hamda huquqiy mazmundagi hujjatlar bilan tanishish hamda ularning mohiyatini o'rganish metodi. Ushbu metoddan foydalanish respondentlar orasida milliy mafkurani targ'ib etish bo'yicha nazariy bilim (ma'lumot)larni uzatish imkoniyatlari, respondentlarda axloqiy sifatlarni qaror toptirish sohasida yaratilgan shart-sharoitlar darajasini aniqlash imkonini beradi. Hujjat materiallarini o'rganish metodi yordamida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvarda chiqarilgan ""Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va ta'lim tizimiga

joriy etish» to'g'risidagi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgust 343-sonli "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash" to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta Maxsus Ta'lim Vazirligining 2000-yil 17-oktabrda qabul qilingan "Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 279-sonli hamda 2001-yil 15-yanvar 48-sonli "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari" fanini o'rganish va uni targ'ib etish markazini tashkil qilish to'g'risidagi, shuningdek Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quv rejasiga «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» o'quv kursini kiritish, mazkur kursni o'qitishni yo'lga qo'yish yuzasidan me'yoriy hujjatlar, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitilayotgan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» o'quv kursi bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturining mazmunini tahlil keldik.

Ushbu holat, kasb-hunar kollejlari faoliyatida amaliy dasturi hamda uning bo'limlari tarbiyaviy ishlar dasturining mazmunida milliy mafkuraning qay darajada singdirilganligi, yoshlarning kamolga erishish darajasi xususidagi tasavvurini hayotiy dalillar bilan boyitish uchun zamin hozirladi. Me'yoriy hamda o'quv-tarbiyaviy hujjatlar mohiyatining o'rganilishi yoshlar ongiga milliy mafkurani singdirish, samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli va rang-barang tadbirlarni o'tkazish imkoniyatini aniqlashga olib keldi. Natijada me'yoriy va o'quv-tarbiyaviy ishlar mazmuni yanada takomillashtirildi, yangi dolzarb mavzular bilan boyitib borildi.

Me'yoriy hamda o'quv-tarbiyaviy hujjatlar mazmunini tahlil qilish tadqiqot muammosining ijobiy yakunini ta'minlashga qaratilgan yaxlit faoliyat tizimini yaratish, amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab olishga asos bo'ldi.

3. Ilg'or tajribalarni o'rganish metodi. Ma'lumki, pedagogik tajribani o'rganish pedagogik tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri ekanligi juda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarda alohida qayd etib o'tilgan.

4. Ijtimoiy so'rov metodi. Ijtimoiy so'rov metodlari sirasiga kiruvchi ommaviy metodlar sifatida e'tirof etilgan anketa hamda intervyu metodlaridan

tadqiqot muammosini tadqiq etish yo'lida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, anketa xamda intervyu metodlari, pedagogik tajriba yakunlari, qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil etishga xizmat qiluvchi qo'shimcha ma'lumotlarni yig'ish uchun imkon beradi. Anketa va intervyu metodlarini muvaffaqiyatli qo'llash kafolati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

— ushbu metodlardan foydalanishda pedagogik kuzatuv metodi bilan o'zaro uzviylikka erishishga e'tibor qaratilishi lozim, chunki ana shu sharoitdagina respondentlarning berilgan savollarga yondashuvining qay darajada oshkoralik va samimiylilik xususiyatini namoyon etganligiga aniq baho berish imkoniyati vujudga keladi;

— anketa hamda intervyu metodlaridan foydalanish jarayonida qanday turni tanlash (ochiq, yarim yopiq va yopiq anketa va intervyular), albatta, o'zimizning ixtiyorimizda, biroq har qanday turdan foydalanish chog'ida ham anketa va intervyu tarkibiga kiritilgan savollarning aniqlik, maqsadga muvofiqlik, mantiqiylik, o'zaro aloqadorlik, izchillik, bog'liqlik, uzluksizlik, umumiy maqsadni yoritishga yo'naltirilganlik, vaqtni tejash, samimiy muloqot muhitini hosil qilish kabi xususiyatlarga ega bo'lishiga erishish maqsadga muvofiqdir;

—muammo yoki tanlangan mavzudan chekinmaslik chora-tadbirlarini ko'rishga alohida e'tibor berish shart qilib qo'yildi;

—anketa yoki intervyu tarkibiga kiritilgan savollarni tuzishda, respondentlarning yoshi, bilim darajasi, guruhning tarkibi, auditoriyaning holati (respondentlar sonining ko'p yoki kamligi) va hokazo omillar inobatga olindi

— anketa yoki intervyular tarkibida berilayotgan savollarning miqdoriga alohida e'tibor qaratildi.

5. Kasb-hunar kolleji talabalari ongida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik asoslari muammosi doirasida tashkil etilayotgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida interfaol metodlar (bahs, debat, munozara, muammoli vaziyatlarni tahlil etish, «Aqliy hujum», «6x6x6», Klaster, «Zig-zag») hamda

ta'limiy o'yinlar texnologiyalar (ishchanlik, rolli, sahna ko'rinishlari «Quvnoqlar va zukkolar», hosil qilingan sun'iy muhitda eng maqbul (vaziyat nuqtai nazaridan) faoliyatni tashkil etish va boshqalar)dan unumli foydalanishga alohida ahamiyat qaratildi.

8. Matematik -statistik metod.

Kasb-hunar kolleji talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari muammosini tadqiq etish maqsadida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'ldik:

1. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga qaratilgan tayyorgarlik bosqichi - tadqiqot muammosining umumiy mazmuni, mavjud holatga muvofiq tajriba-sinov ishlarining o'tkazilish tartibi aniqlab olindi. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni, maqsad va vazifalari respondentlarga tushuntirildi.

2. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, tadqiqot muammosini ijobiy hal etishga xizmat qiladigan maxsus metodikani tajriba-sinov ishlari jarayoniga tatbiq etish, dastlabki natijalarni tahlil qilish, zarur hollarda tavsiya etilayotgan metodika mazmuniga o'zgartirishlar kiritish, navbatdagi (ta'kidlovchi va yakunlovchi) tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, olingan natijalarni umumiyalashtirish, tahlil etish, shuningdek, matematik-statistik metod yordamida qayta ishlash.

3. Amalga oshirilgan tadqiqot ishining amaliy natijalarini takdim etish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Talabalar ongida ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida milliy mafkurani shakllantirish samaradorligini oshirish borasida tashkil etiluvchi tajriba-sinov ishlarining maxsus dastur bo'yicha amalga oshirilishi faoliyat unumdorligini ta'minlabgina qolmay, balki, uni rejali, maqsadga muvofiq bo'lishi uchun ham shart-sharoit yaratdi.

2. Ishlab chiqilgan tajriba-sinov dasturi ishlarida yaxlit jarayonning aks etishi, xususiy faoliyatlar o'rtasida muayyan aloqadorlik, bog'liqlik va tizimning hosil bo'lishini ta'minladi.

3. Mazkur dastur asosida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish natijasida bir qator salbiy holatlarning bartaraf etilishiga erishildi.

Kasb-hunar kolleji talabalarining ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida milliy mafkura mazmunini o'zlashtirganlik darajasini tekshirishda, ularning mafkuraviy bilimlarni egallaganliklari, mustaqil ishlash layoqatiga egaliklari, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon eta olishlari, egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari, shuningdek, axloqiy jihatdan yetuklik darajalarini inobatga olish asosida baholandi.

Kasb-hunar kolleji talabalari ongida milliy mafkurani shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida samaradorligi ta'minlandi.

Kasb-hunar kolleji talabalari ongida milliy mafkuraning shakllanganlik darajasini aniqlash murakkab jarayondir. Shu bois biz ushbu maqsadga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan an'anaviy usullar bilan birga, tekshirishning noan'anaviy usullaridan ham foydalanishga harakat qildik. Bunday usullardan biri milliy mafkuraning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan yozma nazorat ishlaridir. Nazoratning mazkur usuli yoshlar tomonidan milliy mafkura mazmunining qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari biz ushbu usul yordamida yoshlarning dunyoqarashi, g'oyaviy e'tiqodi hamda o'rganilayotgan mavzuta doir ichki his-tuyg'ularini bilishga muvaffaq bo'ldik. Yozma nazorat ishlarini o'tkazishdan avval yoshlarga qo'yilgan savollarga nisbatan mantiqan yondashish, egallangan bilimlarning mazmunidan kelib chiqish va shaxsiy qarashlarini ham ifoda etish borasida yo'l-yo'riq ko'rsatiddi.

Kasb-hunar kolleji talabalari ongida milliy mafkurani shakllantirish samaradorligini aniqlashda biz respondentlar e'tiboriga quyidagi savollarning mazmunini yoritishni talab etdik.

a) Talabalar uchun:

1. Qaysi fanlarni yaxshi ko'rasiz va nima uchun?

2. Ijtimoiy-gumanitar fanlardan saboq berayotgan ustozingizni qaysi fazilatlari sizga ko'proq yoqadi?

3. Vatanimiz tarixiga qiziqasizmi?

4. O'z huquq va burchlaringizni bilasizmi?

5. Badiiy kitoblar, kundalik gazeta va jurnallarni o'qib turasizmi?

b) O'qituvchilar uchun:

1. Talabalarda milliy mafkurani shakllantirishda o'qituvchining qaysi fazilatlari muhim o'rin tutadi?

2. Pedagogika kollejlari qaysi fanlar ko'proq talabalarda milliy mafkurani shakllantirishga xizmat qiladi?

3. Kollej talabalarida milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni imkoniyatlaridan qanday foydalanilayapti?

4. Talabalarda milliy mafkurani shakllantirishda auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning holatini qanday baholaysiz?

5. Talabalarda milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan muammoni nimada deb o'ylaysiz?

6. Talabalarda milliy mafkurani shakllanganlik darajasini qanday izohlaysiz?

Bundan tashqari talabalarda milliy mafkuraning qay darajada shakllanganlik darajasini aniqlash uchun 50 ta test savolari ham olindi. Talabalar bilimni aniqlashga qaratilgan savollarni tanlashda ularning keng qamrovli va murakkabligiga ham e'tibor qaratdik.

Milliy mafkuraning singdirilganlik darajasini tahlil qilishda asosiy e'tibor yoshlar tomonidan amalga oshirilgan yozma nazorat ishlarining mazmuniga qaratildi. Bu hoi yoshlarning milliy mafkurani o'zlashtirganlik darajasini to'liq, aniq va ravshan baholash imkoniyatini berdi.

Yozma nazorat ishlari har biri 125 nafardan iborat bo'lgan tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazildi. Tajriba guruxi talabalari tomonidan bajarilgan yozma nazorat ishlari mazmunining tahlili shuni ko'rsatdiki, ular masalaning mohiyati va mazmuniga nisbatan qo'yilgan barcha talablarni to'g'ri tushungan holda, jiddiy yondashib, milliy mafkuraga tayanib javob berishga harakat qilganlar.

Aksariyat talabalarning javoblarida esa masalaning mohiyati keng yoritilmagan bo'lsa-da, «Qaysi fanlarni yaxshi ko'rasiz va nima uchun?» xususidagi dastlabki savolimizga 70% talabalar tomonidan to'g'ri javob berilgan, 23% talabalar esa milliy istiqlol mafkurasi mazmuni xususida umumiy fikrlarni bayon etganlar, 7% talabalar noaniq javob berganlar. Ijtimoiy-gumanitar fanlardan saboq berayotgan ustozingizni qaysi fazilatlari sizga ko'proq yoqishi, milliy mafkura o'zbek xalqining asriy orzu-intilishlari, maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi, buguni va kelajagini uzviy bog'laydigan g'oyalar tizimi ekanligi 78% talabalar tomonidan to'g'ri ta'kidlangan, 22% talabalar umumiy javob berganlar. Milliy mafkuraning tarixiy shakllari, falsafiy, dunyoviy, diniy va ma'naviy asoslari, uning ma'no va mazmunini belgilaydigan manbalar sirasiga xalqimizning boy tarixi, xalq og'zaki ijodi namunalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar kirishi xususidagi fikrlar 7% talabalar tomonidan to'g'ri ta'kidlangan. 22% talabalar esa masalaning ushbu jihatini e'tibordan chetda qoldirgan bo'lsa, qolgan 4% talabalar ushbu masalaga umumiy tarzda yondashganlar.

Milliy mafkurada milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi xususida 74% talabalar keng qamrovli mulohazalarga to'xtalganlar. Bularga milliy mafkuraning eng yaxshi qadriyatlarini o'zida aks ettirishi, milliy xususiyatlarimizni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutish, shu bilan birga milliy mafkura umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etishi va ulardan oziqlanishi kabi xususiyatlar kiradi. 20% talabalar bu masalani yoritishda fakatgina milliy qadriyatlarni e'tirof etib o'tganlar, umumbashariy qadriyatlar to'g'risida hech qanday ma'lumot bermaganlar. Talabalarning qolgan 6%i masalaning bu jihatlariga umumiy munosabat bildirganlar.

Milliy mafkuraning bosh g'oyasiga ta'rif berar ekanlar, xalqimizning istiqlol yo'lidagi bosh maqsadi "ozod va obod, erkin va farovon hayot" barpo etish ekanligini 76% talabalar e'tirof etganlar. Bunda talabalar xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh maqsadi avvalo "Vatan ozodligi va obod"ligi, insonlarning "erkin va farovon hayoti" bilan belgilanishini, tinchlik

barcha demokratik erkinliklarga erishishning bosh kafolati ekanini to'g'ri anglagan holda ta'riflaganlar. 24% talabalarimiz umumiy fikr bayon etganlar.

Milliy mafkuraning asosiy g'oyalariga to'xtalar ekan, talabalarning 72% i har bir g'oyaga alohida e'tibor qaratgan. Masalaning bu jihatini ochishda yoshlar milliy mafkuraning asosiy negizi mustaqil taraqqiyotimizning bosh yo'nalishidan kelib chiqishini ta'kidlaganlar. Asosiy g'oyalar tizimida "Vatan ravnaqi", "yurt tinchligi", "xalq farovonligi", "komil inson", "ijtimoiy hamkorlik", "millatlararo totuvlik" hamda "dinlararo bag'rikenglik" g'oyalarini tavsiflashda yoshlarimiz keng kamrovli tushuncha berib o'tganlar. Jumladan, "Vatan ravnaqi" deganda har bir yosh o'z xalqining baxti, uning gullab yashnashini o'z taqdiri bilan bog'lagan holda ta'riflab bergan. "Yurt tinchligi" eng katta ne'mat va barqaror taraqqiyotning garovi ekanligini alohida ta'kidlaganlar. "Xalq farovonligi"ni odamlarning munosib turmush tarzi, iqtisodiy va moddiy jihatdan to'kis yashash kabi omillar bilan bog'lab ko'rsatganlar. O'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim asoslaridan biri "komil inson"ni shakllantirish ekanligi va bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini talabalar to'g'ri tushunib yetganlar.

Tahliliy ishlarimiz talabalarning milliy mafkuraning "millatlararo totuvlik" g'oyasi mohiyatini chuqur anglab yetganliklarini ko'rsatdi. Millatlararo totuvlik azal-azaldan xalqimizning oliy qadriyati ekanligini qayd etgan holda bu g'oya respublikamizda yashayotgan turli millat va elatlarning o'zaro birdamligi va hamjihatligini, yagona millat bayrog'i ostida ularning manfaatlarini birlashtirish, millatchilik va shovinizm kabi illatlarga qarshi kurashishda katta ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaganlar. "Dinlararo bag'rikenglik" ma'naviy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etuvchi muhim g'oya ekanligini talabalar to'g'ri belgilab o'tganlar. Talabalar bu g'oya mohiyatini turli din va e'tiqodga ega kishilarni yagona Vatan, olijanob orzularga erishishda birlashtiruvchi vazifani o'tashini alohida ko'rsatib o'tganlar. Milliy mafkuraning asosiy g'oyalari xususida fikr bildirishda 28 % talabalarimiz umumiy yondashganlar.

Birinchi savolga olingan javoblardan kelib chikib, shuni ta'kidlash mumkinki, yoshlar milliy mafkuraning mazmuni to'g'risida aniq tasavvurga egalar.

Talabalar milliy mafkura mohiyatini, uning bosh va asosiy yo'nalishlari mazmunini ham chuqur anglab yetganlar. Ular tomonidan ikkinchi savolga ham qiziqarli va rang-barang javoblar olindi. "Dunyoning butungi kundagi mafkuraviy manzarasi qanday?"— deb berilgan savolni ta'riflar ekanlar, talabalar quyidagicha javoblar berdilar.

Ushbu mavzuning mohiyatini yoritishda 100% talabalar ishtirok etdilar. Ularning deyarli 65%i hozirgi davrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olganligini xalqlarni mafkuraviy jihatdan tobe etish va natijada butunlay qaram kilib olishga qaratilgan intilishlar kuchayib borayotganligi va boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan hududlarni qurol kuchi bilan emas, mafkuraviy yo'l bilan bo'ysundirish orqali egallab olishga bo'lgan hatti-harakatlar o'sib borayotganligini ta'kidlab o'tganlar. Yoshlar bunday murakkab vaziyatlarning sodir bo'lish sabablariga to'xtalar ekanlar, ularni ma'naviy qashshoqlik, mafkuraviy e'tiqodsizlik, ekologik halokatlar, narkobiznes, terrorizm va boshqa insoniyat hayotiga xavf tug'diruvchi omillarga to'xtalغانlar. Shu bilan birga tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan axborot oqimlarining jadallashuvi, universal texnologiyalarning o'sib borishi umumbashariy vazifalarni bajarish bilan bir qatorda yovuz kishilarning quroliga aylanib borayotganligini e'tirof etganlar. Geosiyosiy maqsadlarga qaratilgan siyosat bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar bilan qo'shilib borayotganligini talabalar o'z yozma ishlarida e'tirof etganlar. Talabalarning javoblarida dunyoni bo'lib olishga urinayotgan, buyuk davlatchilik gegemonizmi, diniy mansublik, etnik birlik, sobiq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlik asosida bo'lib olishga qaratilgan mafkuralar mavjudligi aks ettirilgan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlarning keskinligi, ya'ni sobiq ittifoq o'rnida paydo bo'lgan yosh mustaqil davlatlarni mafkuraviy iskanjaga olishga qaratilgan kurashning kuchayib borishi xususida talabalar mulohaza yuritgan. Shu bilan birgalikda jamiyatimizda mavjud bo'lgan mafkuraviy muammolar xususida, ya'ni islom xalifaligini tiklash, sobiq ittifoq

tarkibiga kiritish, tarix va milliy qadriyatlarimizni soxtalashtirish, xalqni ma'naviy jihatdan buzish, mintaqaviy mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan hatti-harakatlar to'g'risida to'xtalib o'tganlar. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni, taraqqiyotning o'zbek modeli, "kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" konsepsiyasi, hozirda O'zbekistonning jahondagi o'rni va nufuzi to'g'risida talabalar mulohaza yuritganlar. Berilgan savol yuzasidan talabalarning 29% i umumiy fikrlarni bildirgan bo'lsalar, 6% talabalarimiz bu masalaning mohiyatini yoritishda noaniq javob berganlar.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, yoshlarning aksariyati dunyoning bugungi kundagi mafkuraviy manzarasi, uning yosh respublikamiz hayotiga ta'siri to'g'risida aniq tasawurga egalar. Talabalarning ushbu mavzuga oid bilimlari yetarli darajada rivojlangan deyish mumkin.

Kasb-hunar kolleji talabalari e'tiboriga havola etilgan navbatdagi, g'oyaviy bo'shliq nima va mafkuraviy immunitetni shakllantirish deganda nimani tushunasiz?"— degan savolga 69% talabalar to'g'ri javob berganlar. Barcha ijtimoiy tuzumlar almashinuvi jarayonida ma'lum bir muddat jamiyat hayotida bo'shliq, ya'ni "Vakuum" sodir bo'ladi. Ma'lumki, sobiq ittifoqning qulashi hamda Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida yuqorida aytganimizdek, bizning jamiyatimizda ham g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lganligi to'g'risidagi mulohazalar taabalarining 69% javoblarda aks ettirilgan. Dunyoning turli burchaklarida joylashgan katta mablag` va ta'sir kuchiga ega bo'lgan "Vahhobiylik", "Hizb ut-tahrir", "Akromiylik", "Adolat uyushmasi", "Islom lashkarlari", "Tavba" va shu kabi boshqa ekstremistik to'dalar jamiyatimiz hayotiga ta'sir etishga harakat qilganliklarini talabalar o'z yozma ishlarida ko'rsatib o'tganlar. Bunday holatni bartaraf etish maqsadida, jamiyatimiz mafkurasi milliy asoslarining yaratilganligi, odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish, milliy mafkura asosida kishilarni uyushtirish va safarbar etish, jamiyat a'zolarini ma'naviy ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilganligi talabalarning javoblarida o'z ifodasini topgan. Talabalar "mafkuraviy

immunitet" mazmunini tahlil etar ekanlar, odamlarda yot va g'arazli g'oyalarning zararli ta'sirini anglab olishlari, oq-qorani ajratishga bo'lgan xususiyatlarini tarbiyalash, deb to'g'ri ta'riflaganlar. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda g'oyaviy tarbiyaviy ishlar ahamiyatini yuqori ekanligini e'tirof etganlar. Yuqorida berilgan savolimizga talabalarning 26% i umumiy tarzda yondashib, 5% i esa noaniq javob qaytarganlar.

"Shaxs kamolotida milliy mafkuraning ahamiyati nimalarda deb bilasiz?", deb nomlangan keyingi savolimizga yoshlar 100% javob berganlar.

Mafkura inson, jamiyat, millat manfaatlari, intilishlarini va ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtirgan holda ifodalanishini 68% talabalar yozma ishlarida ifodalaganlar. Milliy mafkura, inson va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi intilishini o'zida g'oyaviy tizim sifatida mujassamlashtirishi jamiyatdagi barcha fuqarolar, jumladan, turli millat-elat va ijtimoiy guruhlarni birlashtirishi, jamiyat siyosiy hayotidagi g'oyalarni jamlab ularni fuqarolar qarashlari bilan uyg'unlashtirish kabi vazifalarni bajarishga oid fikrlar 72% respondentlarning yozma ishlarida to'g'ri ta'kidlab o'tilgan. Shu bilan bir qatorda talabalarning yozma ishlarida, milliy mafkuraning jamiyat a'zolarining yaratuvchanlik, ijodkorlik faoliyatlarini jadallashtiruvchi va ularni jamiyat maqsadlariga yo'naltiruvchi hamda jamiyat hayotida vujudga kelgan muammolarni hal etishda, jamiyat a'zolarini harakatga keltiruvchi kuch ekanligini alohida ta'kidlab o'tganlar. Talabalar mafkura bilan ma'naviyatning uzviy bog'liqligi xususida fikr bildirganlar. Milliy mafkuraning inson va jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi, milliy va umuminsoniy yutuqlarga erishishda yo'l ochib beradigan yosh avlodda vatanparvarlik, insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini shakllantirishda ulkan omil bo'lishini respondentlar e'tirof etganlar. Talablarning deyarli 72% i milliy mafkura qadriyatlarimizni o'zida mujassamlashtirgan, ommaning ma'naviyatini boyitish, o'zligini anglash, qadr-qimmatini tiklashga xizmat qiladigan mafkuradir deb ta'rif berganlar. Bu savol yuzasidan 21% talabalarimiz umumiy munosabat bildirib, qolgan 7% talabalar esa noaniq javob berganlar.

Kasb-hunar kolleji talabalarining bergan javoblaridan shu narsa ko'rinib turibdiki, ular milliy mafkuraning inson va jamiyat kamolotida tutgan o'rnini yuqori baholaganlar.

"Jamiyatning taraqqiyotida o'z ishtirokingizni nimalarda deb bilasiz"? — deb nomlangan savolga olingan javoblarda kasb-hunar kolleji talabalari bu mavzuga doir chuqur bilimga ega ekanliklarini ko'rsatganlar. Ijobiy javoblar 68% ni tashkil etdi. Dastavval talabalar barpo etilayotgan yangi jamiyat kelajagini barkamol avlod takdiri bilan bog'lab ko'rsatganlar. Shunday kishilargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga hissa qo'sha olishi, uning fidoiyligi, o'z kasbiga bo'lgan munosabati va Vataniga bo'lgan mehr-muhabbatini ifodalashga harakat qilganlar. Yoshlarning bergan javoblarini o'rganishda, shu narsa e'tiborga loyiqki, ular jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishni o'z mutaxassisliklari nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ifodalashga intilganlar. Talabalarning aksariyat qismi jamiyatimizda bilim olishga, mehnat qilishga bo'lgan imkoniyatlarning kengligi to'g'risida to'xtalغانlar. Ularning ishlarida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining barqarorligi hamda ta'lim muassasalarining yoshlarni tarbiyalashdagi o'rnini yuqoriligini ta'riflaganlar. Faqatgina 68% talabalarning ishlaridagina, qo'yilgan maqsadga vijdonan yondashish masalasi yoritilgan. Talabalar o'zlarining a'lo o'qishlari, namunali xulqlari, jamoat ishlaridagi faol ishtiroklari bilan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishlarini bildirib, yoshlar kelajakda yosh avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalash orqali, jamiyat hayotida ishtirok etishni e'tirof etganlar. Yoshlar korxona va oliy o'quv yurti hayotidagi ijtimoiy foydali mehnat, ilmiy konferensiyalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etishi orqali, bu jarayonga hissa qo'shishni nazarda tutganlar. Talabalar kollej ichki tartib qoidalariga rioya etish, murabbiylar tomonidan qo'yilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish masalasiga ham o'z e'tiborlarini qaratganlar. Berilgan so'nggi savolga talabalarning 24% i umumiy, qolgan 8% i noaniq javob berganlar. Talabalarning ushbu savol yuzasidan bergan javoblari fikrlar xilma-xilligi bilan o'zga savollarga berilgan javoblardan farq qilib turadi. Bu hol, shu narsani tasdiqlaydiki, barcha yoshlar jamiyat hayotiga oid tushunchalar to'g'risida keng qamrovli dunyoqarashga ega ekanlar. Bundan tashqari ularning bergan javoblaridan

shu narsa ay on bo'ladiki, ular nafaqat milliy mafkuraga doir bilimlarini namoyon qildilar, balki jamiyat ma'naviy hayotini ifodalovchi, voqea va hodisalar to'g'risida ham tasavvurga egadirlar.

Keltirilgan yozma ishlar mazmunidan ko'rinib turibdiki, talabalar jamiyat hayotidagi o'z o'rinlarini hamda kelajakka bo'lgan rejalarini aniq belgilab olganlar.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tadqiqot o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishdik. Bular quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, milliy mafkurani talabalar ongiga singdirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya mazmuni ular tomonidan samarali o'zlashtirildi.

Ikkinchidan, talabalar biz taklif qilayotgan ta'lim-tarbiya mazmunini o'zlapggirish natijasida milliy mafkuraga doir barcha savollarga aniq va ravshan ta'rif berish ko'nikmalariga egadirlar.

Uchinchidan, mantiqiy fikrlash orqali mavzuga doir mustaqil fikr bayon qilish, keng dunyoqarash va targ'ibotchilik malakalariga ega bo'ldilar.

To'rtinchidan, jamiyat mafkuraviy hayotiga doir voqyea-hodisalarga aniq munosabat bildirish olish ko'nikmasini shakllantirdilar.

Buni biz quyidagi jadvalda ifodalab berdik:

8-jadval

Kasb-hunar kolleji talabalarining milliy mafkurani tushunish darajasi

Milliy mafkuraga doir savollar	To'g'ri javob	Umumiy javob	Noaniq javob
Milliy mafkura hamda uning bosh va asosiy g'oyalari to'g'risida tushuncha bering?	70%	23%	7%
Dunyoning bugungi kundagi mafkuraviy manzarasi qanday?	65%	29%	6%
G'oyaviy bo'shliq nima?			

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish deganda nimani tushunasiz?	69%	26%	5%
Shaxs kamolotida milliy mafkuraning ahamiyatini nimalarda deb bilasiz?	72%	21%	7%
Jamiyat taraqqiyotida o'z ishtirokingizni nimalarda deb bilasiz?	68%	24%	8%

Demak, biz amalga oshirgan tadqiqot ishi o'z samarasini berdi. Buni biz ishimizning navbatdagi sahifalarida tajriba-sinov ishlarining natijalari orqali bayon qilib beramiz.

3.2. Talabalarda mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishga oid o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida kasb-hunar kolleji talabalarini ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etishlari, o'z shaxsiy tashabbusi bilan o'zlari yashab turgan mahallalarda, mehnat faoliyati bilan band bo'lgan korxona hamda o'quv muassasalarida ijtimoiy faoliyatni mazmun jihatdan boyitib, samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan milliy mafkurani targ'ib qilishga ham alohida e'tibor qaratildi.

Talabalarning ichki imkoniyatlari, bilim hamda tafakkur darajalariga tayangan holda mafkuraviy mazmundagi tadbirlarning tashkil etilishi ularda mazkur tadbirlarda ishtirok etishga nisbatan qiziqishni hosil qildi. Tadbirlarni tashkil etish, uni samarali o'tkazish ishida alohida jonbozlik va namuna ko'rsatgan talabalarni doimiy ravishda rag'batlantirib borishning yo'lga qo'yilishi esa ularning yanada faol bo'lishlariga turtki bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlarining bunday tartibda amalga oshirilishi talabalarning o'quv muassasasi, mahalla hamda korxonalar ijtimoiy faoliyatidagi ishtiroki darajasining oshishi va milliy mafkurani chuqur anglab yetishlariga olib keldi.

Kasb-hunar kolleji talabalari ongida milliy mafkuraning shakllanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladigan savollarga berilgan javoblar mazmuniga ko'ra respondentlar quyidagi guruhlariga ajratildi.

9-jadval

No	Darajalar	Respondentlarning umumiy n = 250 nafar soni
----	-----------	--

		Tajriba guruhi $n_1 = 125$		Nazorat guruhi $n_2 = 125$	
		Tajriba boshida	Tajriba yakunida	Tajriba boshida	Tajriba yakunida
1.	Quyi	59	8	61	38
2.	O'rta	28	36	28	48
3.	Yuqori	38	81	36	39

Izox: n_1 — tajriba guruhi, n_2 — nazorat guruhi respondentlarining soni.

Milliy mafkuraning talabalar ongida shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida quyidagi jadvalni hosil qilamiz:

10-jadval

Guruhlar	Respondentlar soni	Tajriba boshida			Tajriba oxirida		
		quyi	o'rta	yuqori	quyi	o'rta	yuqori
Tajriba	$n_1 = 125$	59	28	38	8	36	81
Nazorat	$n_2 = 125$	61	28	36	38	48	39

Ushbu jadvalga binoan talabalar ongida milliy mafkuraga doir quyidagi bilimlar shakllangan degan fikrga keldik:

1. Yuqori daraja — milliy mafkuraning mohiyatini puxta o'zlashtirganlar, mafkuraviy jarayonlar xususida shaxsiy qarashlar, shuningdek, yot g'oyalarga nisbatan ichki immunitetga ega bo'lganlar, milliy mafkuraga nisbatan xurmat bildiradiganlar.

2. O'rta daraja — milliy mafkuraning mohiyatini deyarli o'zlashtirganlar, mafkuraviy jarayonlar xususida tushunchalarga egalar, biroq bu borada shaxsiy qarashlari yetarli darajada shakllanmagan, o'zlarida mafkuraviy immunitetni tarbiyalashga jiddiy e'tibor beradilar.

3. Quyi daraja — milliy mafkuraning mohiyatini tushunishga, o'zlarida mafkuraviy immunitetni hosil qilishga harakat qiladilar. Yot, vayronkor mafkura g'oyalarining salbiy ta'siri, ularning mudhish oqibatlarini his qila oladilar, biroq ularga qarshi kurashish yo'lida qanday g'oyaviy sifatlarga ega bo'lish lozimligi haqida yetarli tushunchalarga ega emas. Muayyan darajada g'oyaviy sifatlarga ega bo'lsalarda, ularni jamiyat ravnaqi, atrofdagi kishilar manfaatlari uchun xizmat qilish sari yo'naltira olmaydilar, ijtimoiy faolliklari yetarli darajada shakllanmagan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlarini matematik-statistik yo'l orqali tahlildan o'tkazamiz.

Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarining ko'rsatkichlari:

11-jadval

Guruhlar	Respondent — lar soni	Tajriba boshida		
		quyi	o'rta	yuqori
Tajriba	$n_1 = 125$	59	28	38
Nazorat	$n_2 = 125$	61	28	36

Tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlarining statistik tahlili quyidagi natijalarni berdi:

Empirik o'rta qiymatlari X_t, X_{N_2} va dispersiyalarni hisoblaymiz:

$$t_H = \sim (5-36 + 4-28 + 3.61) \cdot W_{3,i}$$

$$X_T = \frac{5 \cdot 38 + 4 \cdot 28 + 3 \cdot 59}{125} = 3,83,$$

$$i_H\% = \frac{3 \cdot 38}{125} \cdot 100\% = 76,6\%,$$

$$D_T = \frac{59 \cdot (3 - 3,83)^2 + 28 \cdot (4 - 3,83)^2 + 38 \cdot (5 - 3,83)^2}{125 - 1} = 0,75,$$

O'rtacha kvadratik chetlanishlari:

$$T_H = JD_X = 0,86$$

$$r_r = \frac{0,86}{0,87} = 0,87,$$

Variasiya koeffitsiyentlari va baxolash ishonchli chegaralarini topamiz:

$$D = 1,73 \cdot \frac{0,87}{\sqrt{125-1}} = 0,133$$

$$T_n = 100\% \cdot 86\% = 86\%$$

$$Y_n = \frac{0,86}{0,87} = 98,9\%$$

$$D = 1,73 \cdot 0,133 = 0,23$$

Noma'lum o'rta qiymatlarning ishonchli oraliqlari: tajriba guruhi uchun: $[X_m - A_m; X_m + D_r] = [3,695; 3,965],$

nazorat guruhi uchun: $[X_n - A_n; X_n + A_n] = [3,667; 3,933]$.

H_

									H
									n
3,8	3								%

4

1 -

rasm.

Demak, tajriba va nazorat guruhlarining tajriba boshida bilish darajalari ko'rsatkichlarining statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, bu guruhlar o'rtasida deyarli fark yo'q.

Haqiqatdan ham bunday farqning yo'qligi tasodifiy emas, balki qonuniy ekanligini ko'rsatish maqsadida Pirson mezonidan foydalanamiz. F_T va F_H lar orqali Yuqoridagi jadvaldagi statistik tanlanmalarga mos kelgan bosh to'plamlarning taqsimot qonunlarini belgilab olib, quyidagi

$$N_0: F_T = F_H$$

gipotezani ilgari suramiz. Pirson statistikasini hisoblaymiz:

$$\chi^2 = \sum \frac{(m_{ij} - n_{ij})^2}{n_{ij}} = \frac{(59 - 61)^2}{59 + 61} + \frac{(28 - 28)^2}{28 + 28} + \frac{(38 - 36)^2}{38 + 36} = 0,033 + 0,054 = 0,087$$

± 74

«

Ushbu mezonga mos kelgan 95% lik kritik nuqtani jadvaldan aniqlaymiz:

$$Z_{0,95(3-1)} = Z_{0,95(2)} = 6.$$

AMMO,

$X^{\wedge}=0,087 < 6 = Z_{0,95(2)}$. Demak, biz yuqorida keltirgan Yao gipoteza rad etilib, tajriba boshida har ikki guruhlarda ko'rsatkichlar doimo deyarli farqlanmas ekan degan xulosani muqarrar ravishda ta'kidlay olamiz.

Tajriba oxirida tajriba va nazorat guruhleri samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarining statistik tahlilini keltiramiz.

Tajriba oxirida nazorat va tajriba guruhlarining ko'rsatkichlari:

12-jadval

Guruhlar	Respondent — lar soni	Tajriba oxirida		
		Quyi	O'rta	Yuqori
Tajriba	$n_1 = 125$	8	36	81
Nazorat	$n_2 = 125$	38	48	39

$$X_m = \frac{5 \cdot 81 + 4 \cdot 36 + 3 \cdot 8}{125} = 4,6, \quad X_n = \frac{5 \cdot 39 + 4 \cdot 48 + 3 \cdot 38}{125} = 4,0.$$

100%

80%.

$$4,6)^2 + 36 - (4 - 4,6)^2 + 8 - (3 - 4,6)^2) \wedge 0,37$$

$$f_{\tau_a} = \frac{39 \cdot (5-4)^2 + 48 \cdot (4-4)^2 + 38 \cdot (3-4)^2}{125} = 0,62$$

$$\tau_T = 4 \cdot 0,62 = 0,61, \quad m_n = 4 \cdot 0,79 = 0,79$$

Demak, bu holda ham H_3 gipotezani rad etishimizga va bu bilan esa o'z

navbatida tajriba so'ngida tajriba va nazorat guruhlarining hyech bir ko'rsatkichi ustma-ust tushishi mumkin emas, degan xulosa qilishimizga asos bo'ladi. Yuqoridagi statistik tahlilni e'tiborga olgan holda tajriba so'ngida tajriba guruhining barcha o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi tasodifiy emas, balki qonuniy degan xulosaga kelamiz. Bu esa, o'z navbatida tajriba-sinov ishlari samaradorligini isbotlaydi.

XULOSA

Mustaqillikka erishilgandan so'ng demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat boshqaruvini tashkil etish, fikrlar erkinligi, ma'lum siyosiy partiyalar, harakatlar va oqimlar faoliyatining erkinlashuvi jarayoni davlatimiz siyosatini inkor etuvchi, mustaqillik g'oyalariga yot bo'lgan va xalqimizning tinch hayotiga soya solayotgan vayronkor g'oya hamda mafkuralarni targ'ib etuvchi oqimlarning vujudga kela boshlaganligi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi vaziyatning keskinlashuviga olib keldi.

Jamiyat hayotida paydo bulgan mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan milliy mafkurani shakllantirish va uni jamiyat mkarolari, ayniqsa talabalar ongiga singdirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Xususan, "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin"(1998 y.), "Tarixiy xotrasiz kelajak yo'q"(1998 y.), "Milliy mafkura — davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy — ma'naviy kuch-quwat manbai"(2000 y.), "Milliy istiqlol g'oyasi— xalq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir"(2000 y.) kabi maqolalarda milliy mafkuramizning nazariy asoslari yaratildi.

Sobik "komunistik mafkura"ning tanazzulga yuz tutishi ma'lum vaqt jamiyat hayotida mafkuraviy bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu muammoni keltirib chiqaradigan turli sabablar bilan bir qatorda talabalar faoliyatini tashkil etadigan tashkilotlarning siyosiy-g'oyaviy sohalarda amalga oshirayotgan ishlari talab darajasida bo'lmaganligi, talabalarning mafkuraviy immunitetini qaror toptirish, ular ongiga milliy urf-odatlarimizga, an'ana va tarixiy merosimizga sodiqlik ruhini singdirish, umumbashariy insonparvarlik aqidalariga xos fazilatlarni tarbiyalash masalalarida jiddiy kamchiliklarning vujudga kelganligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish tizimini qayta ko'rib chiqish va bu borada milliy mafkuraga tayanish, uning ilmiy asoslarini yaratish ehtiyojini keltirib chiqardi.

Respublikamizda bu muammoni bartaraf etish pedagogika fani oldiga qator

vazifalarni qo'ymoqda. Barkamol inson tarbiyasiga yangicha munosabatda bo'lish, uning mazmunini umumbashariy, milliy hamda demokratik tamoyillar bilan boyitilganligi, milliy mafkurani talabalar ongida shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yaratilganligi, bu jarayonning izchil, tizimli va uzluksiz tashkil etilganligi, ijtimoiy hayot, jumladan ta'lim-tarbiyada dialektik bog'liklik hamda o'zaro aloqadorlikning ta'minlanganligi, mafkuraviy targ'ibot ishlarini tashkil etishda shaxs, yoshlar harakati, o'rta maxsus ta'im tizimi muassasalari, jamoatchilik va davlatning yagona tizim asosida birlashishi tadqiqot muammosining yechimini topishda samarali natijani ta'minladi.

Ushbu tadqiqot ishida kasb-hunar kolleji talabalari ongida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish muhim pedagogik muammo sifatida tahlil qilindi.

Amalga oshirilgan tajriba-sinovlar natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Talabalar ongiga milliy mafkurani singdirishning bir maqsadga yo'naltirilganligi hamda asosiy maqsadning ma'lum natijalarga ega bo'lganligi, ta'lim-tarbiyani tashkil etishda mukammal tizimga tayanilganlik, bu sohada muhim natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularda aks ettirilgan ma'naviy tushunchalarning mohiyati va ahamiyati to'g'risidagi g'oyalarni talabalar ongiga yetkazish, ularda milliy mafkuraga nisbatan chuqur hurmat- ehtiromni qaror toptirish milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. Talabalar ongida milliy mafkurani shakllantirish maqsad, ehtiyoj, qiziqish, rag'bat, ijtimoiy faoliyat, milliy mafkuradan iborat tizimda yoshlarning idroki, mafkuraviy tasawuri, tafakkuri hamda salohiyatini shakllantirish jarayonida hozirgi zamon talablarini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Mafkuraviy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda yoshlarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik kuzatuv, yoshlar hamda murabbiylar o'rtasida suhbatlar, anketa so'rovlari, ma'ruza, seminar, amaliy

mashg'ulotlar, ekskursiya, muammoli pedagogik vaziyatlarni hosil qilish, rebus topshiriqlari, boshqotirma, rolli, ishchanlik o'yinlarini, ta'limning texnik va axborotli vositalari ko'magida samarali tashkil etish tadqiqot ishining maqbul yo'ldan borganligini ko'rsatdi.

5. Ta'lim-tarbiya jarayonida taabalarining amaliy tajribalarga ega bo'lishi amalga oshirilgan ishlarning ilmiy-pedagogik hamda metodik jihatdan to'g'ri tanlanganligini namoyon etdi. Talabalarda milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'tishda qo'llaniladigan bahs, munozara, pedagogik vaziyatlarni hal etish, rolli o'yinlar, ko'riklar o'tkazish hamda ilmiy jamiyat faoliyatini yo'lga qo'yish, milliy g'oyaga oid devoriy gazeta va jurnallar tashkil etish kabi vazifalarning amalga oshirilganligi yoshlar ongida milliy mafkurani shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – O'zbekiston, 1998. – 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.-20-29-b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.-319 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1999. – 48 b.
5. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat//Tuzuvchi va nashr uchun mas’ullar: N.Komilov, K.Bo’ronov, - T.: O'zbekiston. – 1995.- 129 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008. 176 b.
- 7.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. – 25-b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997.-328 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: Ozbekiston, 1999. – 48 b.
10. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 78 b
11. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin//Tafakkur j. 1998. 2-3-son. 2-16-b
12. O'zbekiston Respublikasi “Kadlar tayyorlash Milliy dasturi” //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.-31-61-b.
13. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000.—80b.

14. Barkamol avlod orzusi //Nashr uchun mas'ul: T.Risqiyev. Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov.- T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1999.-184 b.
15. Avloniy A.Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O'qituvchi, 1992.- 160 b.
16. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturi(tajribaviy). O'zbekiston tarixi (80 soat). – T.: O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, 1999. – 16 b.
17. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturi(tajribaviy). O'zbekiston tarixi. – T.: O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, 2000.- 22 b
18. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 53 b.
19. Ahmedov B. O'zbek ulusi. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1992. – 53 b.
20. Boboyev H., Hasanov S. “Avesto” ma'naviyatimiz sarchashmasi. – T.: Adolat, 2001. – 158 b.
21. Vatan saodati (Milliy mafkura va taraqqiyot masalalari). – T.: Sharq nashriyot- matbaa konserni, 1998. – 208 b.
22. Davronov Z. Ijtimoiy-gumanitar fanlar yoxud kadrlar tayyorlash mas'uliyati// J.Xalq ta'limi.-Toshkent, 2004.-№1. -82-87-b.
23. Jalolov A. Mustaqillik.Ma'naviyat.Mafkura. – T.: O'zbekiston, 1994. – 95 b.
24. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996. – 362b.
25. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar// mas'ul muhar. N.Komilov. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1996. – 66b.
26. Imomnazarov M., Eshmuhammedov S. Milliy ma'naviyatimiz asoslari /Tahrir hay'ati: X.Karomatov va boshq. – T.: Toshkent Islom universiteti. 2001. – 432 b.
27. Karimova V.M. Milliy istiqlol g'oyasini ta'lim jarayoniga joriy etishning pedagogik hamda psixologik asoslari. – T.: O'AJBNT. 2002. – 26 b.

28. Kasimova Z. Talaba – yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (Oliy o`quv yurtlari ma`naviy – ma`rifiy ishlari misolida): Ped. Fan. Nomz. ...diss. Avtoref. – T.: 2004. – 20 b.
29. Kasimova Z. Talaba – yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (Oliy o`quv yurtlari ma`naviy – ma`rifiy ishlari misolida): Ped. Fan. Nomz. ...diss.– T.: 2004. – 208 b.
30. Mavlonova R., To`rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – T.: Oqituvchi, 2001. – 512 b.
31. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.-T.: Fan, 1994.- 134 b.
32. Mahmudov T. Mustaqillik va ma`naviyat /O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlari asosida.-T.: sharq nashriyot-matbaa konserni, 2001.- 160b.
33. Ochilov S. Mustaqillik ma`naviyati va tarbiya asoslari.-T.: O`qituvchi, 1997.-208 b.
34. Pedagogika //A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – T.: O`qituvchi, 1996. – 200 b.
35. Tojiyev H. Milliy mafkuraning nazariy va metodologik masalalari. – T.: Mehnat, 1999. – 88 b.
36. Tulenov J., Yusupov K., G`ofurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo`nalishlar. – T.: O`zbekiston, 1993. – 48 b.
37. Falsafa. Qomusiy lug`at / Mas`ul muhar. Q.Nazarov. – T.: O`zbekiston Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti.2004. – 495 b.
38. O`zbekiston tarixi (akademik litsey va kab-hunar kollejlari 1-bosqich o`quv. Mo`ljal. Ma`ruzalar matni) // Tuzuvchi-mualliflar: A.Qozoqboyev, L.Ahmedova. – T.: O`rta-maxsus. Kasb-hunar ta`limini rivojlantirish institute,2004. – 104 b.
39. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi: pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo`nalishlari. – T.: Fan, 1999. – 144 b.

40. Ibrohimova G. Milliy g`oya, milliy istiqlool mafkurasi – yoshlar tarbiyasida yetaklovchi kuch. / Xalq ta`limi 2001, № 4 47-50 b.
41. Musurmonova M. Yoshlarning mafkuraviy sog`lomligi – ogohlik garovi. / Uzlaksiz ta`lim 2006, № 3, 84-88 b.
42. Salayeva M. “Milliy istiqlool g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanini o`qitish tajribasidan / Xalq ta`limi 2001, № 4, 42-44 b.
43. Tilegenov A. Sinfdan tashqari ishlarda ma`naviy-axloqiy tarbiya / Xalq ta`limi 1998, № 3, 20-23 b.
44. Tolipova J. Ta`limda milliy istiqlool g`oyasi / Xalq ta`limi 2001, № 6. 8-12 b.
45. Quronov M. Mafkuraviy kurash: pedagogik talqin / Xalq ta`limi 2003, № 5. 14-18 b.
46. www.ziyonet.uz
47. www.pedagog.uz
48. www.google.uz
49. www.referat.uz
50. www.tdpu.uz

**1-son pedagogika koleji 2-kurs talabalarini mafkuraviy shakllanganlik
darajasini aniqlash uchun
SO`ROVNOMA**

Ism-

sharifingiz_____

—

Guruhingiz_____

1. Qaysi fanlarni yaxshi ko'rasiz va nima uchun?

3. Ijtimoiy-gumanitar fanlardan saboq berayotgan ustozingizni qaysi
fazilatlari sizga ko'proq yoqadi?

4. Vatanimiz tarixiga qiziqasizmi?

5. O'z huquq va burchlaringizni bilasizmi?

6. Badiiy kitoblar, kundalik gazeta va jurnallarni o'qib turasizmi?

**Samarqand shahar 1-son Pedagogika kolleji 3-kurs talabalari uchun
ijtimoiy-gumanitar fanlardan test savollari**

1."Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatilishi mumkin emas".
Bu so`zlar O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi
moddasida bayon qilingan?

- A.40;
- B. 28;
- C. 19;
- D.12.

2. Milliy g`oya.....-

- A. Inson va jamiyat hayotiga ma`no va mazmun baxsh etuvchi, uni ezgu
maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir;
- B. Odamlarni bir-birlari bilan o`zaro jipslashtiradigan, ularni baxt-saodatga
undaydigan ma`naviy kuch;
- C. Jamiyatning ilmiy, madaniy va ma`rifiy rivojini ta`minlaydigan fikrlar va
qarashlar tizimi, insonni hayotiy ehtiyojlarini qondiruvchi ma`naviy omil;
- D. Yuqoridagilarning barchasi to`g`ri.

3. "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va
fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo`lur" bu so`zlar muallifi kim?

- A. A.Cho`lpon
- B. A. Fitrat
- C. M. Behbudiy
- D. U.Nosir

4. Muayyan shaxs yoki millatni boshqalardan ustun qo`yadigan mafkuraviy
aqida.

- A. Fashizm
- B. Shovinizm
- C. Kommunizm
- D. Nigilizm

5. Mafkura mazmun mohiyatiga ko`ra....?

- A. Falsafiy, diniy, dunyoviy
- B. Ilmiy, ma`rifiy, diniy
- C. Falsafiy, dunyoviy, ma`rifiy
- D. Ilmiy, noilmiy, reaksiya

6. Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilovchi omil....

- A. Tinchlik va barqarorlik uchun kurash
- B. Inson qalbi va ongi uchun kurash
- C. Yovuz g`oyalarga qarshi kurash
- D. Ezgu g`oyalarga qarshi kurash

7. Diniy mafkuraning tarixiy shakllari

- A. Magiya, toat-ibodat, e`tiqod
- B. Totemizm, anemizm, fetishizm
- C. E`tiqod, fetishizm, afsungarlik
- D. Qiroatxonlik, e`tiqod, taqvo

8. Mafkura bo`lmasa

- A. Jamiyat taraqqiyoti sekinlashadi
- B. Odam, jamoyat, davlat o`z yo`lini yo`qotishi muqarrar
- C. Inson va jamiyat hayotida yovuz g`oyalar xuruji kuchayadi
- D. Jamiyat taraqqiyoti mafkuraga bog`liq emas

9. Milliy istiqlol g`oyasi fanini ta`lim tizimiga joriy etish haqida Prezident

I. Karimov imzolagan farmoyish sanasi...

- A. 2000 yil 9fevral
- B. 2000 yil 13 mart
- C. 2001 yil 4 yanvar
- D. 2001yil 18 yanvar

10.A.Navoiy haykali o`rnatilgan davlatni ko`rsating

- A. Jan. Korea
- B. Xitoy
- C.Turkiya
- D. Yaponiya

11.Amir Temur tomonidan Oqsaroy peshtoqiga yozdirilgan “Qudratimizni ko`rmoq istasang...” shiorining davomi qanday?

- A.”...lashkarlarimizga boq”;
- B. “...shaharlarimizga boq”
- C.”...imoratlarimizga boq”;
- D.”...boyligimizga boq”

12. “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” bu so`zlar kimniki?

- A. M. BehBudiy;
- B.A.Fitrat;
- C.A.Avloniy;
- D.Qodiriy;

13.”Turkiston- umumiy uyimiz” g`oyasini Markaziy Osiyo davlatlaridan qaysi biri olg`a surgan?

- A.Qazoqiston;
- B. Turkmaniston ;
- C. Tojikiston;

D. O`zbekiston;

14. Milliy istiqlol g`oyasi ta`limning qaysi tizimlarida o`qitiladi?

A. Umumiy o`rta ta`limda;

B. O`rta –maxsus kasb-hunar ta`limi tizimida;

C. Oliy ta`limda;

D. Hammasi to`g`ri

15. Jaholatga qareshi kurashning quroli nima?

A. Jaholat;

B. Siyosat;

C. Madaniyat;

D. Ma`rifat;

16. "Taraqqiyotning o`zbek modeli" deganda nechta tamoyil nazarda tutiladi?

A. 10 ta;

B. 5 ta;

C. 7 ta;

D. 4 ta;

17. Sharq ilm-fanida "Ustodi avval", ya`ni birinchi muallim nomini olgan buyuk zot kim bo`lgan?

A. Konfutsiy;

B. Mo Di;

C. Brixaspati;

D. Arastu;

18. Xoja Ahmad Yassaviy qalamiga mansub asar...

A. Fozil odamlar shahri;

B. Tarixi anbiyo va hukamo;

C.Devoni hikmat;

D.Devoni lug`otit turk;

19."Teatr bu ibratxonadir" bu so`zlar muallifi kim?

A. Cho`lpon;

B.Fitrat;

C. Qodiriy;

D. Behbudiy;

20.Animizm mafkurasining mohiyati qaysi javobda berilgan?

A.Hayvon va o`simliklarga sig`inish;

B.Buyuk narsalarga sig`inish;

C.Haykallarga sig`inish;

D.Ruhlar va jonlarga sig`inish

;

21.M.Ulug`bek haykali o`rnatilgan Yevropa davlati?

A.Litva

B. Latviya

C.Norvegiya

D. Finlandiya

22. G`oyalarning yaratilishida aholining qaysi qatlami alohida o`rin tutadi?

A. Buyuk mutafakkirlar;

B.Dehqonlar;

C.Fuqarolar;

D. Ishchilar;

23.O`zbekiston kelajakda qanday jamiyat qurishga intilmoqda?

A.Adolatli jamiyat;

B.Huquqiy davlat;

- C.Demokratik jamiyat;
- D.Hammasi to`g`ri.

24.Avlodlar davomiyligini ta`minlovchi tizim qanday nomlanadi?

- A.Elat;
- B.Shajara;
- C.Qarindoshlik;
- D.Millat.

25.Avloodan avlodga O`tib kelayotgan ijtimoiy- axloqiy munosabatlarning umumlashgan shakli

- A.An`ana;
- B.Odob ;
- C.Boyluk;
- D.Madaniyat.

26. Komillik tushunchasi qanday ma`noni anglatadi?

- A.Bilimdonlik;
- B.Mukammallik;
- C.Sog`lomlik;
- D. Xotirjamlik;

27."Ezgu fikr, ezgu so`z ezgu amal" tamoyillarini qaysi tarixiy manbalarimizda uchratasiz?

- A."Qur`oni Karim"da;
- B."Avesto"da
- C. Hadisi sharif"da
- D.Xalq og`zaki ijodida

28. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirish qaysi sohalarda amalga oshiriladi?

- A. Ta'lim va tarbiya
- B. Mdaniy- ma'rifiy muassasalar
- C. Jismoniy tarbiya va sport;
- D. Shu sohalarning barchasida

29. Ma'naviy tahdid deganda avvalo...?

- A. Tilini
- B. Dinini
- C. E'tiqodini
- D. Barchasiga

30. Ma'naviyatning tayanch ustunlaridan biri nima?

- A. Mehnatsevarlik
- B. Vijdon pokligi
- C. Ilmga chanqoqlik
- D. Moddiy boyliklar

31. Mamlakatimiz huquqida nechta ko'hna tarixiy obidalar YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan?

- A. 100dan ziyod
- B. 3mingdan ziyod
- C. 4mingdan ziyod
- D. 3mingga yaqin

32. Qariyb 3 ming yil oldin yaratilgan "Avesto" bebaho ma'naviy obida mamlakatimizning qaysi hududida yaratilgan?

- A. Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq tumanida
- B. Ko'hna Buxoro vohasida

C. Farg`ona vodiysida

D. Xorazm vohasida

33. "Alpomish" dostonining asosiy fazilatlari ko`proq nimaga qaratilgan?

A. Vatanparvarlikka

B. Poklanishga

C. Vijdon erkinligiga

D. Mehnatsevarlikka

34. "Musulmonlarning e`tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafiga sazovor bo`lgan buyuk siymo?

A. Burhoniddin Marg`inoniy

B. Iso Termiziy

C. Ahmad Farg`oniy

D. Imom Motrudiy

35. "Hidoya" – "to`g`ri yo`l" asarining muallifi kim bo`lgan?

A. B. Naqshbandiy

B. A. Farg`oniy

C. B. Marg`inoniy

D. A. G`ijduvoniy

36. "Agar bu ulug` zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" bu so`zlar kimga atab aytilgan?

A. B. Naqshbandiy

B. Imom Buxoriy

C. A. Navoiy

D. M. Ulug`bek

37.Ibn Sino haykali o`rnatilgan Yevropadagi davlat?

A.Niderlandiya

B.Belgiya

C.Daniya

D.Shotlandiya

38.”...Milliy tilni yo`qotmak millatning ruhini yo`qotmakdir” bu so`zlar kimga atab aytilgan?

A.A.Avloniy

B. A. Navoiy

C.M.Behbudiy

D. Kaspirinskiy

39.”Uyat va or- nomusning yo`qotgan odam xuddi ki hayvon jinsiga aylanib qoladi” bu so`zlar muallifi kim?

A. A.Yassaviy

B. A. Navoiy

C. Imom Buxoriy

D. M. Behbudiy

40.Prezident I. Karimov kitoblarida shunday so`zlar yoizilgan “Shaxsan o`zim bu illatdan jirkanaman, shu illatga chalingan odamni ko`rarga ko`zim yo`q” gap qaysi so`z haqida ketmoqda?

A. Poraxo`rlik

B.Ta`magarlik

C. Chaqimchilik

D. Sotqinlik

41.Davlat arbobi alloma Mirzo Ulug`bek yubileyi qachon yurtimizda nishonlandi?

- A. 1997 yil
- B.1994 yil
- C. 1996 yil
- D.1999 yil

42. O`zbekistonda qancha millat va elat vakillari yashaydi?

- A. 100dan ortiq
- B. 110dan ortiq
- C. 130dan ortiq
- D.150dan ortiq

43. Mustaqillik yillarida tarixiy shaharlarning ham yubileyi nishonlangan. Quyidagi qaysi shaharning 2700 yilligi YUNESKO ishtirokida keng bayram qilindi?

- A. Shahrisabzning
- B.Buxoroning
- C. Samarqandning
- D.Termizning

44."Tarix-xalq ma`naviyatining asosidir" ushbu fikr kimning qalamiga mansub?

- A.Sharof Rashidov
- B. Islom Karimov
- C. Abdullo Oripov
- D. Erkin Vohidov

45.Istiqlol sharofati tufayli xalqqa qaytarilgan qadriyat hisoblangan bayramlar:

- A.Navro`z, Mehrjon bayrami, Ramazon va Qurbon hayiti
- B. Navro`z, Mehrjon bayrami,

C.O`qituvchilar va murabbiylar

D. Ramazon va Qurbon hayiti

46."Vijdon erkiligi va diniy tashkilotlar to`g`risida"gi Qonun qachon e`lon qilindi?

A.1996 yil 9 sentabr

B.1997 yil 29 avgust

C. 1998 yil 1 may

D. 1994 yil 23 aprel

47. Aqidaparastlikka qarshi kurashuvchi kuch qanday nomlanadi?

A. Tenglik

B. Hurfikrlilik

C. Adolatlilik

D. Dinlarga hurmat

48. Bunyodkor g`oyalar qanday paydo bo`ladi?

A.Diniy va dunyoviy bilimlarni yaxshi egallashdan

B. Bilimdonlikdan

C. O`zaro kelishuvlardan

D.Insonlarning o`zaro maqsadlaridan

49.Xotira va qadrlash kuni:

A. 1 sentabr

B.9 may

C.8 dekabr

D 14 yanvar

50. Samarqand yaqinidagi Mo`minobod qishlog`idan bundan 3ming 300 yil ilgari yasalgan qadimiy yodgorlik nomini aniqlang.

- A.Musiqa nay cholg`usi
- B.Naqshli sopol idishlar
- C.Cho`pon haykalhasi
- D.Temirchilar yasagan buyum

SAMARQAND SHAHAR 1-SON PEDAGOGIKA KOLLEJI
IJTIMOIIY- GUMANITAR FANLAR O`QITUVCHILARIDAN
OLINGAN
SO`ROVNOMA VARAQASI

Hurmatli ustoz! Ushbu so`rovnoma ilmiy- tadqiqoy maqsadida o`tkazilmoqda. Shu bois xolis, mustaqil javob berishingizni so`raymiz. Javoblar uchun oldindan rahmat!

1.Talabalarda milliy mafkurani shakllantirishda o`qituvchining qaysi fazilatlari muhim o`rin tutadi deb o`ylaysiz? Fikringizni yozing.

_____2.Pedagogika kollejlarda qaysi fanlar ko`proq talabalarda milliy mafkurani shakllantirishga xizmat qiladi?

_____3.Kollej talabalarida milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy – gumanitar fanlarni imkoniyatlaridan qanday foydalanilyapti?

_____4.Talabalarda milliy mafkurani shakllantirishda auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning holatini qanday baholaysiz? (Tagiga chizing)

Yaxshi O`rtacha Yuqori darajada

5.Oquvchilarda milliy mafkurani shakllantirishda ijtimoiy –gumanitar fanlar oldida turgan muammoni nimada deb o`ylaysiz?

_____6.Talabalarda milliy mafkurani shakllanganlik darajasini qanday izohlaysiz?

O`rtacha

Past

A`lo darajada

**SAMARQAND SHAHAR 1-SON PEDAGOGIKA KOLLEJIDA
O`TKAZILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARIDA ISHTIROK ETGAN
GURUHLAR HAQIDA MA`LUMOT
208-GURUH**

R/t	Talabalarning ism va sharifi
1	Akramova Taxmina
2	Astanaqulova Maftuna
3	Bozorova Rayhona
4	Eshniyozova Manzura
5	Eshonqulova Manzura
6	Hamidova Maftuna
7	Islomova Shahlo
8	Ismoilova Gulhayo
9	Ismoilova Iqboloy
10	Jalilova Yulduz
11	Jo`rayeva Gulmira
12	Kahhorkulova Kibriyo
13	Kuchiyeva Zilola
14	Maxmudqulova Gulhayo
15	Mustafoyeva Shalola
16	Najmiddinova Nozima
17	Norbo`tayeveva Gullola
18	Nurbekova Navbahor
19	Obloqulova Dilfuza
20	Otamurodova Charos
21	Rajabova Sarvinoz
22	Ro`ziyeva Shahlo
23	Tirkasheva Gulnoza

24	To`raqulova Nilufar
25	To`rayeva Gulruxsor
26	Ziyatova Zamira
27	G`afforova Gulhayo
28	G`ulomova Dilnora
29	O`ktamova Muslima
30	Sharipova Shahnoza

Guruh rahbari: Najiyeva Sojida

209-guruh

R/t	Talabalarning ism va sharifi
1	Amirova Mahbuba
2	Aliyeva Sarvinoz
3	Arziqulova E`tabor
4	Berdiyeva Yulduz
5	Bobonazarova Shoxsanam
6	Toshmatov Sherbek
7	Bozorova Sitara
8	Do`stmurodova Muhabbat
9	Hamdamova Maftuna
10	Islomova Sultonoy
11	Isroilova Fotima
12	Iskandarova Mehribon
13	Iskandarova Gulhayo
14	Mamirova Durdona
15	Meliyeva Manzura
16	Mustafoyeva Shoiri
17	Muxsinova Visola

18	Normamatova Mahliyo
19	Namozova Vazira
20	Odilova Mohira
21	Qo`shoqova Shohsanam
22	Qurbonova Firuza
23	Qobilova Amina
24	Qobilova Yulduza
25	Sattorova Sevara
26	Sindorova Surayyo
27	Tursunqulov Muriddin
28	Tohirova Madina
29	O`rinova Mahliyo
30	Yusupova Mohinur

Guruh rahbari: Qarchig`ayev Nurali

313-guruh

R/t	Talabalarning ism va sharifi
1	Abduhakimova Nargiza
2	Abdullayeva Umida
3	Abdurasulova Anisa
4	Ashurova Shahnoza
5	Axtamova Gulnoza
6	Berdimurodova Maftuna
7	Egamqulova Gulniso
8	Hayitova Shahlo
9	Inoyaova Lola
10	Ibragimova Zarnigor
11	Ismoilova Mahina

12	Jo`rayeva Gulzira
13	Kodirova Manzila
14	Nurmatova Sarvinoz
15	Nasriddinova Mahchehra
16	Po`latova Nuriya
17	Parmanova Madina
18	Sulaymonova Maysara
19	Sultonmurodova Saltanat
20	Sobirova Sevara
21	Tohirova Gulmira
22	Tirkasheva Shohista
23	Toshmatova Zilola
24	Toliboyeva Vasila
25	Tursunova Sabrina
26	O`ralova Zarnigor
27	Xolmonova Nargiza
28	Xudoyqulova Shahlo
29	Yunusova Noila
30	Rustamova Luiza

Guruh rahbari: Yaxshiboyeva Nargiza

317-guruh

R/t	Talabalarning ism va sharifi
1	Ashurova Gulasal
2	Akramova Gulhayo
3	Botirova Nasiba
4	Bobotoyeva Dilnoza
5	Boyxo`rozova Sarvinoz

6	Boyxo`rozova Iqbol
7	Bozorova Gulrux
8	Hazratqulova O`lmasoy
9	Husenova Dilnoza
10	Meliyeva Mohinur
11	Murtazayeva Shahnoza
12	Nazarova Mohinur
13	Normurodova Muhayyo
14	Namozova Zamira
15	Oblayeva Visola
16	Otamurodova Gulnoza
17	Raxmatova Gulnoza
18	Temurova Jamila
19	Umarova Safina
20	Umirova Aziza
21	Xidirova Lobar
22	Xurramova Mohina
23	Zayniddinova Fotima
24	Ziyadullayeva Sitara
25	Shodiyeva Shohista
26	Shoxmirzayeva Aziza
27	Sadinova Zarnigor
28	Xudoyberdiyeva Maftuna

Guruh rahbari: Bo`riyeva Nilufar